

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**Go`zalxon Muhammadjonova**

**BADIIY ASAR TAHLILI**

(Talqinlar, tahlillar, sharhlar)

**Farg‘ona-2018 yil**

Mas'ul muharrir:  
Y.SOLIJONOV  
filologiya fanlari doktori

Taqrizchilar:  
A.SABIRDINOV  
FarDU, filologiya fanlari doktori  
F.TURSUNOVA  
Farg'ona politexnika instituti katta o'qituvchisi

Muhammadjonova G.

Mutolaa tuhfasi. Uslubiy ko'rsatma. Farg'ona, 2017

Milliy va jahon adabiyoti namunalarini o'quv-didaktik va ilmiy-filologik tahlili mushtarakligida yaratilgan ushbu uslubiy ko'rsatma o'zbek tili yo`nalishi 3-4 kurs talabalariga "Badiiy tahlil asoslari" fanidan olgan nazariy bilimlarini boyitishda va asar tahlili bo'yicha amaliy ko`nikmlarni shakllantirishda, kitobxonning mutolaa madaniyatini yuksaltirishda yaqindan ko'mak beradi.

Uslubiy ko'rsatmadan oliy o'quv yurtining filologiya yo'nalishi talabalari, akademik-litsey, kasb-hunar kollejlari talabalari foydalanishlari mumkin.

Mazkur ko'rsatma Farg'ona davlat universiteti Ilmiy kengashining 2015 yil mart oyi 7–yig'ilishida muhokama etilib, nashrga tavsiya etilgan.

## KIRISH

Inson ma'naviy kamolotida badiiy adabiyotning roli katta. U boshqa ijtimoiy ong shakllari – fan, din, huquq, siyosat kabilardan inson tafakkuri, dunyoqarashini obrazlilik, estetik ta'sir vositasida o'zgartirish orqali jamiyat va tamaddunga ta'sir etishi bilan xarakterlidir. Ayni shu xususiyatlariga va badiiy adabiyotning insonga beradigan estetik-didaktik ta'sir ko'lamiga ko'ra xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov “Adabiyot – sakkizinchi mo'jiza”, deya e'tirof etadi. Uning mo'jizaviy qudratini yillar, asrlar silsilasida bardavom yashab kelayotgan durdona asarlar misolida ko'rish mumkin.

“Insonga xos orzu-intilishlarni ro'yobga chiqarish, uning ongli hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy olamni bamisoli parvoz qilayotgan qushning ikki qanotiga qiyoslasak”<sup>1</sup>, ma'naviy qanotning quvvatini, parvozini kitob mutolaasi belgilashi tabiiy.

Badiiy asar qimmatida asarning poetik xususiyatlarini teran anglay bilish juda muhim. O'zbek tili yo'nalishi talabalariga o'quv rejada ko'zda tutilgan “Badiiy tahlil asoslari” fani saboqlarida ana shu maqsad nazarda tutiladi. Ushbu uslubiy ko'rsatma talabalarning mazkur fandan olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash va boyitish, ularda badiiy tahlil ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida yaratilgan. O'zbek va jahon adabiyoti namunalari tahlil va talqinlari asosida yaratilgan mazkur uslubiy ko'rsatmadan filologiya yo'nalishlarida, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda adabiyot darslarining asar tahliliga bag'ishlangan qismlarida, fan to'garaklarining mavzuga oid qismlarini tashkillashda, umuman, kitobxonlar o'rtasida mutolaa madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan tadbirlarda keng foydalanish mumkin.

---

<sup>1</sup> Ислом Каримов. Юксак маънавият-енгилмас куч. Т.: Маънавият нашриёти, 2008 йил 19-бет

## Yaproqdagi hayot talqini

Inson va tabiat masalasi tiriklikning, hayotning asosiy uzvlaridan biri sanaladi. Bu masala badiiy adabiyotda ham yorqin ifodasini topgan. Inson olamidagi evrilishlar, ruhiy-psixologik holatlar, umuman, inson sohir olamining turfa ko‘rinishlari tabiat bilan uyg‘un aks ettiriladiki, bu odam va olam mushtarakligining, yahlitligining isbotidir. Badiiy asarda masalaning bu taxlit talqin etilishi badiiy mukammallikni, mavzu ko‘lami, falsafiy-g‘oyaviy talqin salmoqdorligini, obrazli tasvirdagi yetuklikni ta’minlaydi.

Kitobxon tabiat bilan uyg‘un tasvirlangan bunday asarni o‘zgacha bir ishtiyoq bilan qabul qiladi. Badiiy adabiyotning estetik ta’sirchanligi, tuyg‘ular junbushi shundan namoyon bo‘ladi.

Peyzaj Isajon Sulton asarlarida alohida o‘rin tutadi. Adib tabiat shaydosi sifati har bir tabiat lavhasini jonli aks ettiradi. Shuning barobarida peyzaj katta falsafiy fikr ifodasiga ham xizmat qiladi. Ma’lumki, Oybek tabiat shaydosi sifatida tabiat tasvirlariga alohida o‘rin ajratgan va u lirik qahramon ruhiyatiga xos pafos asosida yoritilgan. Abdulla Qahhor ijodida esa peyzaj ramz va falsafiylik bilan yo‘g‘rilgan. Isajon Sulton ijodida ayni ikki xususiyat uyg‘unlashgan. Uning asarlarida tabiat manzaralari nafaqat tasvirlanadi, balki yuqori pafos bilan kuylanadi. Epik tasvir imkoniyatlari qatoriga lirikaga xos jo‘shqin pafos va tilning bo‘yoqdorligini, lirik qahramon ruhiyatiga xos hissiy evrilishlarni singdira olgan Isajon Sulton hikoyalari alohida kayfiyat bilan o‘qiladi. Adib yaratgan peyzaj tasvirlari ramziy-falsafiy xususiyatga ega. Yozuvchi tabiat hodisalariga ham alohida poetik vazifani yuklay olgan. Jumladan, uning “Boqiy darbadar”, “Ozod” kabi romanlari va hikoyalarida **Shamol obrazi** ayricha talqin etiladi. *Nasim, yel, shabboda, shamol, bo‘ron, dovul* singari obrazlar vositasida inson va hayot to‘g‘risidagi falsafiy qarashlar turfa talqinlarda o‘z ifodasini topadi. Adibning “hikoyalarida shamol esishi, shamol o‘yini, qahri, muloyimligi o‘ziga xos timsol... “Boqiy darbadar” romanida bo‘ron dahshatli kuch va ilohiy aralashuv sifatida ... “Ozod”da sarsari shamol ham hamroh, ham roviy, ham

tabiatning betakror kuchi” sifatida ko‘rsatiladi”<sup>2</sup>. “Oydinbuloq” hikoyasida esa shamol umrning o‘tkinchiligini eslatib turuvchi, o‘tgan fursatlarni sarhisob qiluvchi odil hakamdir.

Yozuvchi ijodida “Oydinbuloq” hikoyasi yorug‘ tuyg‘ular ila yo‘g‘rilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Hikoya Qo‘qonning Oydinbuloq qishlog‘ida tavallud topgan shoir Yo‘ldosh Sulaymon xotirasiga bag‘ishlangan. Xotirota tarzida - retrospektiv syujet asosida yaratilgan asar voqealari lirizm bilan yo‘g‘rilgan, lirikaga xos “men” tilidan bayon qilinadi. Asarni o‘qish davomida bir tolim yorug‘ nurni his etasiz. Xuddi inson umrini muhabbat tuyg‘ulari yoritib, ilitib turgani kabi asarni ham ilk muhabbatning xotiralari yoritib turadi. Hikoyani “Muhabbat haqida qo‘shiq”, deya atasa bo‘ladi. Unda tabiatning tasviri romantizm an‘analari asosida optimistik ruhda kuylanadi: “U mahallar olam behad keng, Oydinbuloq behad katta, bu bujur tol soyasi dunyoni enlagudek edi.

O‘shanda...

O‘shanda... bu buloq yonida men Parizodni uchratgan edim!

Eslayapmanu... o‘zimni xuddi o‘n yetti yashar bo‘z yigitday sezyapman...

Axir, o‘shanda ... olam boshqacha edi, birodarlar!”

Poetik takrorlar, jumalarning o‘ziga xos hissiy-emotsional to‘yintirilganligi, lirik kechinmaning talqini nasrga nazmga xos ko‘tarinkilikni baxsh etgan.

Oydinbuloq yonida parizodni uchratgan o‘spirinning kechinmalari yillar silsilasida tahlil etiladi. Harbiy xizmat, yigirma besh -o‘ttiz yoshlikda ham “o‘sha surur, o‘sha xushbaxtlikni qo‘msagan” qahramonning “ko‘ngli Oydinbuloq yonida qolib ketdi”. “Oydinbuloq kichrayib, bujur tol keksaydi, bari o‘smirlikning shirin xotirasiga aylanib qoldi”.

O‘g‘lini uylantirayotgan o‘rtog‘ining to‘yiga ketayotgan qahramon “bir qo‘lida go‘dagini ko‘targan, bir qo‘lida qizalog‘ini yetaklagan” juvonnini ko‘rdiyu, yuragi hapqirib ketdi: “Yopiray! Tomog‘im quruqshab, yuragim hapqirib ketdi.

---

<sup>2</sup> Расулов А. Акслар фалсафаси // Исажон Султон. Озод. «Шарк» Т.,2012. 421б.

Muncha o‘xshamasa? Parizod? Parizodmi u?” Endi bujur tol qartaygan. Ildizlari yalang‘ochlanib, po‘stloqlari ko‘chib tushgan. Oshiq ko‘kdan tushgan parizodini tutib qola olmadi, asli u ko‘kdan yerga uni deb tushgan va diyoriga qaytib keta olmay, kimningdir asirasi bo‘lib, yerda qolib ketgan parizodi endi yer qiziga aylanib bo‘lgan edi. O‘zi uchun atalgan malakni yonida olib qola olmagan oshiqning afsus va armonlari endi Oydinbuloq xazonlari misolida umrning zavolli ekaniligidan darak berayotgandek. “Dil yomon to‘liqib, yomon orziqayotir”.

Oydinbuloqdagi tol yaproqlariga shamol bir paytlar “Bu kunlar sharaflidir”, - deb bitar edi. Endi esa ularga “Bu kunlar zavollidir”, - deb bitibdi. “Chakkalariga qirov oralagan, yuzlariga ajin tushgan” kishi timsolida umr o‘tib borayotganligi, biroq bu goho mashaqqatli, goho sharafliligi yo‘lda muhabbat yo‘lchi yulduzdek mayoq ekanligi asar davomida quyidagi jumlar asosida ta’kidlab o‘tiladi: “Oydinbuloq ko‘zida chirillab aylanayotgan bir yaproq”. Asar davomida yaproq bilan bog‘liq tasvir to‘rt marotaba takrorlanadi. Va bu yozuvchi ko‘zlagan g‘oyaviy-badiiy niyatga ishoradir:

*“Buloq ko‘zchasiga bitta yaproq tushib qolibdi, girdobdan chiqib ketolmay, chirillab aylanyapti”.*

*“Qaynab chiqayotgan suv oy nurida jivirlaydi, shabada bulturgi xazonlarni shildiratib o‘ynaydi, buloq ko‘ziga tushib qolgan bir yaproq chirillab aylanadi”.*

*“Oydinbuloq juda kichrayib qolgan. Ammo ko‘zchasida girdobga tushib qolgan bitta yaproq hanuz chirillab aylanyapti”.*

*“Sezyapsizmi. Oydinbuloqda bir yaproq chirillab aylanayotir...”*

Bu yaproq – ilk muhabbat, uning shirin xotirasidir. Buloq – soflik, beg‘uborlik, hayot timsoli. Buloq qaynamoqda, hayot davom etmoqda. Buloq yasharish, poklik ulashib qaynamoqda. Uning ko‘zchasida esa bir yaproq chirillab aylanadi. Ko‘z dunyoni idrok etish, anglash vositasidir. Demak, qahramon dunyoni bir vaqtlar yuragiga cho‘g‘ tashlagan, biroq zavolga yuz tutgan muhabbat ko‘zi ila idrok etayotir. Va bu muhabbat inson tirikligi qadardir.

Shuning uchun ham asar soʻnggi “Sezyapsizmi. Oydinbuloqda bir yaproq chirillab aylanayotir” jummalari bilan tugallangan.

Parizodning dinamik usulda yaratilgan portretida ham koʻz tasviriga alohida urgʻu berilgan. Koʻz – inson qalbining oynasi. Parizoddagi ruhiy-hissiy oʻzgarishlar koʻz vositasida qadam-baqadam yorqin tasvirlanadi. “Samodan emas, Oydinbuloqdan taralgan nur”da “yer qizlari tushlaridayam koʻrmaydigan libos”- la turgan parizodning “koʻzlari yulduz, fusunkor”. Tasodifiy uchrashuvdan uning koʻzlarida “xavotir, hurkish” zuhur etadi. Keyinchalik “ohu koʻzlaridagi hurkaklik qoʻrquv va gʻussa bilan almashdi” .

Tilsim roʻmolini qoʻlga kiritgan pari... “Ana endi bu goʻzal chehradagi oʻzgarishni koʻring! Hozirgina yosh ingan kipriklari pirpiradi, katta, qop-qora koʻzlari bolalarcha quvonch bilan boqdi, qaldirgʻoch qanotiday qoshlari hayronlik bilan chimrildi”. Bu kabi ruhiy-psixologik tasvirlar qahramonning sohir dunyosini ochib berishda, undagi ruhiy oʻzgarishlarni tasvirlashda muhim oʻrin tutadi. Ayni oʻrinlarda kino sanʼatiga xos xususiyatni kuzatish mumkin.

Adabiyotda badiiy sintez asarga yana-da xalchillik va haqqoniylik sifatini baxsh etadi. Hikoyada peyzaj, parizodni uchratgandagi portret chizgilari tasvirida kinoga xos xususiyatlar yorqin aks etgan. Bu bilan kitobxon oʻzini xuddi shu voqelikning ishtirokchisi, bir qismidek his etadi.

Asar qahramonlari ismsiz. Biri – bayonchi, ikkinchisi –parimisol Parizod. Yozuvchi bu ikki siymo timsolida minglab-millionlab yuraklarga xos muhabbatni tarannum etgan, kuylagan. U Yoʻldosh Sulaymon, u Isajon Sulton, u siz, biz kabi muhabbatli qalblar. Buni asar soʻngidagi iqrordan ham anglasa boʻladi: “ Axir oʻn yetti yoshida koʻk yuzida oʻziga atalgan Parizod borligiga shubhasiz ishonmagan odam topilarmikin bu koʻhna olamda?”

Hikoyada bujur tol, buloq, yaproq timsollari muayyan poetik vazifa asosida yorqin tasvir yaralishiga xizmat qilgan. Muhabbatli yurak izhorlari, oʻsmirlik va oʻrta yosh dunyoqarashining oʻziga xos talqini ular vositasida chiroyli ifodalangan.

“Oydinbuloq” – muhabbatdan yaralgan asar. Mo‘jizalarni yaratishga qodir muhabbat esa abadiydir. Uning iztirobi ham tiriklik qadar. U inson hayotining yo‘ldoshidir.

### **Matonatning ming bir sinovi**

Badiiy adabiyot badiiy san’atlar orasida o‘zining ayricha polifunksional ekanligi bilan xarakterlanadi. Ayniqsa, uning kompensatorlik va badiiy - konseptual funksiyalari badiiy asar – kitobxon – muallif uchligida amalga oshiriladigan faoliyat jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Kitobxonning ma’naviy kamolotida ayni hodisalar katarsis sari yo‘l ochadi.

Hayot, hayotga muhabbat bilan yashash, borliqni teran idrok etish badiiy adabiyotdagi muhim muammolardandir. Hayotni oliy ne‘mat bilib, uni mazmunli o‘tkazish, o‘zidan ezgulik qoldirish insoniylikning oliy qadriyati hisoblanadi. Bu borada inson matonati, yengilmas irodasi mavzusi jahon adabiyoti va milliy adabiyotimizda o‘ziga xos yoritilgan. Jumladan, B.Polevoyning “Chin inson qissasi” asaridagi Aleksey Meresev, M.Sholoxovning “Inson taqdiri” qissasida Andrey Sokolov, Chingiz Aytmatovning “Somon yo‘li” qissasidagi To‘lg‘anoy, Abdulla Qahhorning “Ming bir jon” hikoyasidagi Mastura, “Asror bobo”dagi Asror bobo, O‘ Genrining “So‘nggi yaproq” hikoyasidagi Jonsi singari obrazlar misolida chin ma‘nodagi yengilmas iroda sohiblarining qiyofasi namoyon bo‘ladi. Asarlardagi tasvirlar janriy imkoniyatlar, uslubiy mahorat va milliylik nuqtai nazaridan o‘ziga xoslik kasb etish bilan birga mushtaraklik ham namoyon etadi. Ana shu jihatlardan biri Insonning insoniyligini belgilovchi asosiy omil– uning yengilmasligi ekanligini ta’kidlashda ko‘rinadi. Adib M.Gorkiy ta’kidlaganidek, “Inson mag‘rur jaranglaydi!” Uning bu mag‘rurligi ortida esa katta sabot va matonat, yengilmas iroda yashiringanligi mazkur mavzudagi asarlarda alohida e’tirof etiladi.

O‘ Genrining “So‘nggi yaproq” asaridagi Jonsi oddiy ayol. Shuning uchun ham muallif “ Zotiljam degan janob...Jonsidek azobga umuman bardoshsiz, nimjongina bir ayolni raqiblik uchun tanlamagan bo‘lar edi. Afsuski, u ayni shu qizni ma’qul ko‘rdi”, deya afsus bilan ta’kidlaydi.



Hastalangan Jonsi hayotdan tamomila umidini uzadi va umrini so‘ngi kunlarini pechakgul yaproqlari hayoti bilan bog‘laydi. Go‘yo har bir tushgan yaproq uning o‘limi sari eltardi: “Pechakgul yaproqlari. Ularning so‘ngisi to‘kilganda, men ham hayot bilan vidolashaman”. Jonsidagi bu tushkunlik va hastalikni yengishda do‘stlari - Syu va rassom chol Berman birgalikda ko‘mak beradi. Butun umri davomida shoh asarini yaratishni orzu qilgan, biroq “hali hanuz ham ilhom parisi etagini tutmagan» Berman so‘nggi yaproq misolida shoh asarini yaratdi. Bu yaproq Jonsining hayotga qarashini tamoman o‘zgartirdi: - Qanchalik zaif bo‘lgan ekanman-a Syu. So‘nggi yaproq ham qanchalik zaiflik qilayotganimni ko‘rsatish uchun to‘kilmay turishga kuch topa oldi. O‘ziga o‘lim tilash katta gunoh”, – deya o‘z xatosini tushungan Jonsi o‘z shoh asarini chizishni maqsad qiladi. Muallif badiiy detal – so‘nggi yaproqqa katta poetik vazifa yuklaydi va oddiy yaproq hamda jamiyatda o‘z mavqeini topa olmagan Berman kabilar ham buyuk ishlar qilishga qodirligiga ishora qiladi.

Psixologik tahlil asosiga qurilgan hikoyada hayotga muhabbat tuyg‘usi o‘ziga xos obrazli talqin etilgan. Asarda hayotga muhabbat va tiriklik yaqinlar, do‘stlarning muhabbati bilan ham belgilanishi, hayotning mazmuni ezgulikda ekanligining ta’kidlanganligi ahamiyatlidir. Bu talqinlar badiiy adabiyotning bugungi adabiyotshunoslikda ko‘plab munozaralar<sup>3</sup>ga sabab bo‘layotgan tarbiyaviy mohiyatini teranroq namoyon etadi.

Mashhur yozuvchi Cingiz Aytmatovning “Somon yo‘li” qissasini inson irodasiga qo‘yilgan haykal deb atash mumkin. Ham judolik, ham mehnat mashaqqatlariga taslim bo‘lmagan To‘lg‘anoy hayotning sinovlarini mardona yengib o‘tadi. Urush tufayli eri va uch o‘g‘lidan, kelinidan birin-ketin ayrilgan ayolning metin irodasi asarda chuqur psixologik talqinlar bilan yoritib berilgan. To‘lg‘anoy judolik azobiga ham, o‘rtaga tushgan oriyat masalasiga ham og‘irlik va aql bilan munosib javob beradi. Bu borada u xalqning mehridan quvvat oladi, mehnatdan najot topadi. Asarda yozuvchi *urush - inson va jamiyat kushandasi*, cheksiz ofatlar manbai ekanligini voqelar rivojida obrazli ko‘rsatib bergan.

---

<sup>3</sup> Ўзбек адабий танқиди. Антология. Т., Турон-Иқбол. 2011

Shuningdek , asarda *“inson taftini inson oladi”*, *“mehnat – insonning o‘zligini anglatadi”*, *“inson – yengilmasligi bilan ulug‘”*, degan falsafiy-g‘oyaviy fikrlar ilgari suriladi. Asarning bu kabi poetik xususiyatlari A.Rashidov izlanishlarida atroflicha yoritilgan<sup>4</sup>.

Asar qahramonlari silsilasidagi asosni To‘lg‘anoy (ona) va Yer tashkil etadi. To‘lg‘anoy –umumlashma obraz. U urush judoliklaridan aziyat chekkan xalqning, millat Onasining timsolidir. Asarda noan‘anaviy bayon uslubidan foydalanilgan. Qissa To‘lg‘anoyning monologi (ichki va tashqi) va Yer bilan dialogidan tashkil topgan. Asarda muallif, bayonchi, hikoyachi yo‘q. Asar voqealari To‘lg‘anoy va Yer tomonidan “chiziladi”. Yer nutqining ba‘zi o‘rinlarida muallif munosabati sezilsa-da, asarda muallif nutqi yo‘q. Yozuvchi bu bilan To‘lg‘anoy va Yer o‘rtasidagi yaqinlikka soya solishni istamagan, ya‘ni “uchinchisi – ortiqcha” usuliga amal qilgan. Darhaqiqat, To‘lg‘anoyning sirlashuvida tashqi ta‘sir yoki o‘zganing aralashuvi ko‘ngil kechinmalarining rangin ifodasiga mone‘lik qilardi.

Qissada yozuvchi ijodining asosiy yetakchi mavzularidan biri – inson va tabiat yaxlitligi muhim o‘rin tutadi. To‘lg‘anoy to‘lib ketganida, qiynalganida, sog‘inchdan o‘rtanganida Yer bilan sirlashadi, undan quvvat oladi. Hayotga intilish, sabr -bardoshni Yerdan oldi. Yer To‘lg‘anoyga doimiy yupanch, suyanch bo‘lib kelgan. Balki asarning ikkinchi nomi(“Momo Yer”)da Yer e‘zozlanib Ona Yer, Momo Yer tavsifiy ma‘nosiga e‘tibor qaratilgandir. Lekin bizningcha, ikkinchi variant inson va tabiat yaxlitligiga ko‘ra Momo va Yer tizimida badiiy mohiyat kuchli.

Retrospektiv syujet asosiga qurilgan asarda xotiro, yodga olish asosida To‘lg‘anoyning butun hayot yo‘li yoritiladi. Uning xarakterini rivojlanib borishi ko‘rsatiladi. Suvonqulga muhabbat qo‘ygan, hayotni mehnat va uning rohatidan, yaratuvchanlikdan, oila totuvligidan, farzandlar shodligidan iborat deb bilgan To‘lg‘anoy urush tufayli sabr-bardoshda tengsiz ayol, sadoqatli yor, teran mushohadali brigada boshlig‘i, ketma-ket farzand dog‘ida kuygan, lekin taqdir

---

<sup>4</sup> Рашидов А. Чингиз Айтматов олами. Т., Ўқитувчи, 2011.Б.101-118

sinovida bosh egmagan, har nedan hikmat izlagan, xalqidan buyuk mehr topgan ayol sifatida namoyon bo'lib boradi.

– “To'lg'anoy, boyaqish To'lg'anoyim, sumbul sochlaringga kumush qirov tushirib ketgan o'sha kunlar emasmi? Esizgina o'rim-o'rim sochlar! Sen bu yerga kelganda har gal ham boshqacha qiyofada kelarding. Dam-badam yuqing og'irlashgandek, hamma qiyinchiliklarga bardosh berib, dardingni ichga yutib *jimgina kelib, jimgina ketsang ham* boshingga qanday qiyin, og'ir kunlar tushganidan to'la ogoh edim.

To'lg'anoy bu azoblarni jimgina ichga yutib yengdi. Biroq bu hasratlar o'z ishini sochning oqlarida namoyon etib bo'lgandi. To'lg'anoyning bu holati “Asror bobo” hikoyasidagi farzand dog'ida kuygan Asror boboning qiyofasiga monand keladi: “*ozibdi, qorayibdi*” Asror boboni ozdirib, qoraytirgan farzand kuyigi edi. U farzand dog'ida kuyib qorayib ketdi. To'lg'anoyni ham bu g'am qaritdi. Uning husnini, oromini o'g'irladi. Ammo u qarshisidagi g'amlar oldida sarosimaga tushmadi, o'zini yo'qotmadi. Bunga u elni kuzatish, o'zgalarni holatini o'zi bilan qiyoslash, o'zgalarning dardu g'amini qalban his etish, teran mushohada yuritish orqali erishdi. Ya'ni sabrning sharobini shimirgancha mardona qadam bosib bordi.

To'lg'anoy og'ir pallalarda nolib, yig'lab emas, balki butun jonu jahdini mehnatga berib, mehnatdan katta quvvat oldi. Frontga ketgan erlar uchun ham uzun dalada mashaqqatli mehnat qilayotgan ayollarning g'am taftini mehnat bosdi.

Birin-ketin boshiga tushib borayotgan taqdir zarbalaridan qalqa-qalqa bor kuchini to'plab oldinlab borayotgan To'lg'anoy kelini Alimanning o'limidan keyin butkul yolg'iz qolganini his etib o'ziga o'lim so'raydi. Biroq bu ma'lum daqiqalar davom etadi. Yangi tug'ilgan chaqaloq, unga mas'ullik hissi To'lg'anoyni yana hayotga qaytaradi. Bu o'rinda hayot va o'lim, baxt va baxtsizlik orasi naqadar yaqinligi obrazli tarzda o'z ifodasini topgan. To'lg'anoyda shafqatsiz hayot sinovlari bilan yana bir bor bellashib ko'rish istagining paydo bo'lishi yengilmas iroda sohibi ekanligidandir.

“Mayli, bu bechora boshimga nimalar tushmadi”, – deya xotirlayotgan To‘lg‘anoy umrining har bir lahzasida xalqning mehrini his etadi, undan quvvat oladi: *“El-yurt bor ekan — hayot ham bor”*.

To‘lg‘anoyning belini bukman, yashashga umid, hayotga ishonch bergan bu –el- yurt mehri ekanligini kitobxon asarni satrma-satr o‘qib borish jarayonida teranroq anglab boradi. To‘lg‘anoy el-yurtga, oilasiga, yeriga mehrini bergan inson. Uning nigohi har narsadan bir hikmat, go‘zallik axtarishga intiladi. Balki To‘lg‘anoyning yutug‘i ham, sinovlar girdobida sinib yo‘q bo‘lib ketmaganligining ham siri shundadir.

E.Hemingueyning ramziylik asosiga qurilgan va katta hayot falsafasi mujassam *“Chol va dengiz”* asarida ham insonning yengilmas ruhi tasvirlangan. Chol - Santyago bu insonlarning timsoli, dengiz bu –hayot. Dengiz oddiydek tuyulsa-da, bag‘rida ming-millionlab o‘simliklar va mavjudotlarni mujassam etgan hayot timsoli. Santyago esa o‘zi singari millionlab odamlarning bir vakili. Yoshi keksa, o‘z kuchidan boshqa tayanadigan narsasi yo‘q, hatto omad ham yuz o‘girgan bir inson. Lekin u bu sinovlarning oldida o‘zini yo‘qotmaydi, umidsizlikka tushmaydi. Uning baxti ham, boyligi ham shunda. Hamisha kelajakka umid bilan qarab, katta maqsadlar bilan yashayotgan chol oxiri ko‘zlangan maqsadi – ulkan baliqni tutishga erishadi. *“Inson umri mobaynida bo‘yidan katta orzular qilmog‘i kerak, hech yo‘qsa, bo‘yi barobariga erishadi”*, degan g‘oyaviy fikr mujassam.

Butun umrini baliqchilik bilan o‘tkazgan, kerak bo‘lsa, bu mahorati bilan odamlarni lol qoldirgan, bir vaqtlar o‘ta kuchli va baquvvat, elning nazaridagi Santyagoga bilagidan kuchi ketib, yoshi o‘tgani sari aksiga olgandek omadning ham yuz o‘girishi juda alam qilardi. Lekin *“bu omadsizlik emas, bir sinov xolos, hali qo‘limdan ko‘p narsa keladi”*, – deya o‘zini ishontirar edi u. Shuning uchun ham sakson to‘rt marotaba ovga chiqib o‘ljasiz qaytib kelganida ham umidsizlikka tushmaydi. *“Nima bo‘pti, o‘tgan gal sakson yettinchi ovda omadim kelgan, hechqisi yo‘q, hammasi yaxshi bo‘ladi”*, – deya umid qiladi.

Orzular ro'yobi Santyagodan katta jasorat va to'lov talab qilardi. Qariya uchun bu qancha og'ir bo'lmasin, u tinimsiz va jasorat bilan ochiq dengizda yolg'iz o'zi ochlik va tashnalik azobiga chidagan holda kurashishga o'zida kuch topa oldi. Tahlika hamrohligi, jismoniy va ruhiy azoblar Santyagoning irodasini sinovdan o'tkazar va bu imtihonni zo'r tirishib muvaffaqiyatli topshirishga harakat qilardi: - "Ammo inson bolasi yengilib, yengilganiga rozi bo'lib ketaverish uchun yaratilmagan," – dedi u.— "*Odamzodni yanchib tashlash mumkin, lekin uni yengib bo'lmaydi. «Umidsizlik – halokat, – deb o'ylardi u. — Buning ustiga, fahmimcha, umidsizlik hatto – gunoh»*".

Asarlar qiyoslanganda kuch quvvatga to'lgan shaxs obrazi emas, ayol, hasta ayol, keksa chol obrazi asosiy qahramon sifatida talqin etilganining guvohi bo'lamiz. Demak, inson irodasi jismoniy kuch-qudratdan emas, ruhiy olamidan quvvat oladi. To'lg'anoy ham, Santyago ham ruhan baquvvat, tushkunlikka bo'y bermaydigan kuchli shaxslar bo'lganligi bois oldilarida turgan mashaqqatni yengib o'tdilar. Qahramonlarning mashaqqatlar girdobidagi ayovsiz kurashlari inson uchun katta ibrat maktabidir. Ular nafaqat inson tabiati, Insonni anglash, balki o'zlikni anglashda katta ahamiyat kasb etadi. Zero, hayot kurashdan iborat, "Har tong kurash hissi bilan uyg'onmagan kishining esa yashashga haqqi yo'q".

### **Ijodkor qismati, iste'dod dardi**

Adabiy aloqalar adabiyot taraqqiyotini ta'minlashda, adabiy jarayonni yangi badiiy asarlar, adabiy an'analar, adabiy oqim va yo'nalishlar, adabiy janrlar bilan boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi. Insoniyat jamoa asnosida turmush tarzini tashkillagandan buyon madaniy aloqalar va uning asosida adabiy aloqalar yo'lga qo'yilib borilgan va bu albatta madaniyat, adabiyot, shuningdek, ma'naviyat borasida o'ziga xos siljishlarni yuzaga keltirgan.

O'zga bir milliy adabiyotdagi yaxshi an'anani o'zlashtirish va o'z milliy adabiyoti xususiyatlari bilan yo'g'rilgan holda yangicha bir yo'nalish, badiiy asar yaratish adabiy aloqalarning samarasidir. Birgina xamsachilik an'anasining shakllanishini, badiiy qoliplash usulining Sharq adabiyotidan G'arb adabiyotiga

o‘zlashganligini, yohud A.Qahhor uslubiy mahoratining shakllanishida rus yozuvchilari N.V.Gogol va A.P.Chexovlarning ijodiy mahorati muhim rol o‘ynaganligini<sup>5</sup> e’tirof etishning o‘ziyoq adabiy aloqalarning nechog‘li ahamiyatli ekanligidan dalolatdir.

Adabiy aloqalar natijasida adabiy ta’sir va uning samarasi sifatida o‘zlashtirma ro‘yobga keladi. Adabiy aloqalar badiiy asar yoki ijodiy metod, adabiy janrlar asosida ham yuzaga kelishi mumkin. Bu jarayonda adabiy janrlarni qiyoslab o‘rganish ham samarali usul hisoblanadi. Uning vositasida o‘zbek adabiyotida sonetlar, tanka usulidagi she’rlar, modern adabiyoti yoki g‘arb adabiyotida mulamma, muvashshah kabi she’r shakllarining voqe bo‘lishi buning isbotidir.

Adabiy aloqalar – qiyosiy adabiyotshunoslikning muhim masalalaridan biri. Ayni bu jarayonning muhim ma’lumotlari milliy adabiyotni, adabiy janrlarni qiyoslab o‘rganish asosida yanada oydinlashadi. Bu masala til o‘rganish bo‘yicha (lingvokulturologiya yo‘nalishda) ham birdek dolzarblik kasb etadi.

Abdulla Qahhor ijodining sayqallanishida chet el adabiyoti vakillarining ijodiy ta’siri ham katta rol o‘ynagan. Ana shu adabiy ta’sir samarasidan biri “Sarob” romanidir. Asar Jek Londonning “Martin Iden” romani ta’sirida yuzaga kelgan. Bosh qahramonlarning xarakter va taqdiri o‘rtasidagi mushtaraklik, sujet liniyasidagi o‘xshashlik, unda davr va qahramon masalasining o‘ziga xos talqin etishilishi ham buning isbotidir. Bu haqda munaqqid Ozod Sharafiddinov ham, adabiyotshunos olim Naim Karimov ham alohida ta’kidlaydi<sup>6</sup>.

Jek London adabiyot xazinasiga 150 dan ortiq hikoyalari, “Martin Iden” va “Temir tovon” kabi romanlari, shuningdek, “Tubanlik kishilari” ocherklar to‘plami bilan o‘zining munosib hissasini qo‘shgan. Jek London hikoya ustasi sifatida jahon adabiyotida munosib o‘rniga ega. U mavzuni xalq ichidan oladi. Talqin etgan obrazlari ham asosan oddiy xalq vakillari. Hayot yo‘lini mashaqqat va qiyinchiliklar bilan o‘tab borayotgan insonlar. Biroq ularda tushkunlikdan ko‘ra

---

<sup>5</sup> Шарафиддинов О. Абдулла Қаҳҳор. Ҳаёти ва ижодий фаолияти ҳақида лавҳалар. Т.,1988. В.26

<sup>6</sup> Шарафиддинов О. Абдулла Қаҳҳор. Ҳаёти ва ижодий фаолияти ҳақида лавҳалар. Т.,1988. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. Т., Ўзбекистон, 2008. Б. 336-339.

umid, ertangi kunga ishonch kuchli. Yozuvchi “insonni sinovlar toblab, kuchli shaxsga aylantiradi”, degan g‘oyani asarlariga singdirib yuborgan. Shuningdek, uning asarlari satrlaridan “Hayot – bu kurash demak, kurashsiz hayot ma’nisizlikdir. Asli hayotning mazmuni ham shunda” degan falsafiy fikrlar ufurib turadi.

“Yozuvchining hikoyalarida iroda mavzusi o‘zgacha talqin etiladi. Inson qudratini namoyish etadigan bu uning irodasidir. Iroda insonni hayotning mashaqqatli so‘qmoqlaridan olib o‘tadi. Iroda insonni tushkunlikka tushishdan saqlaydi. Iroda insonni har qanday mudhish, qayg‘uli voqealar oldida ham bardoshli bo‘lishga undaydi. Jek London hikoyalarida mana shunday iroda egalari qalamga olinadi. Adibning g‘oyat qiziqarli sarguzashtlarga boy “Hayotga muhabbat” asari qahramoni Bill ham ana shunday kuchli iroda sohiblaridan.”<sup>7</sup> U Kanada vodiylarida adashib qolib yolg‘izlikda hayot kechiradi. Baliq ovlab kun kechirib, yolg‘iz suyanchig‘I miltig‘i va pichog‘idan ayrilib, bo‘rilar galasiga duch kelganda ham, yuraverib oyoqlari qavarib, titilib ketganida ham hayotdan umidini uzmaydi, faqat o‘z maqsadi yo‘lida olg‘a qarab yuradi va maqsadiga erishadi.

Bu kabi qahramonlar va tasvirlar yozuvchi ijodida qay tarzda paydo bo‘ldi? Mazkur savollarga javob topish uchun esa yozuvchining umr yo‘liga nazar tashlash lozim.

Yozuvchi yaratgan siymolar osonlik bilan qiyinchiliklarga taslim bo‘lmaydigan, kurashuvchan, irodali kishilardir. Ular o‘z oliy maqsadlari har qanday mashaqqatu, qiynoqlarga, ochlik va iztiroblarga tayyordir. Zero, ular oliy maqsad yo‘lidalar. Ammo qay bir sabablarga ko‘ra oliy maqsad yo‘qolishi bosh qahramonning fojeasini yuzaga keltiradi. “Martin Iden” romani qahramoni ham shunday taqdir sohibi.

Adabiyotshunoslar, adabiy tanqidchilar tahlillarida Martin Iden o‘z jamiyatiga sig‘magan inson sifatida e’tirof etiladi. Ba’zan irodasizligi tanqid qilinadi. Fikrimizcha, yozuvchining bu tasvirlardan ko‘zlagan boshqa g‘oyasi bor.

---

<sup>7</sup> Бойназаров Б. Жаҳон адабиёти. Т., “Муסיқа”, 2006, Б.112.

Insonning inson ekanligi uning sinov va mashaqqatlarda o'zligini yo'qotmasligida, hayotning mazmuni – kurashda. Bosh qahramon oldidagi kurash hissi yo'qolganligi, yaratilgan qulaylik va moddiy boylik uning fojeasi sari yetakladi. Asli nosoz jamiyat bilan kurash qahramon umrining mazmuni edi. Bu mazmun yo'qolgach, qahramonning maqsadi ham barham topdi. Yohud jamiyatning kelishuvi uni kurashsiz holatga yetakladi va undagi kurashuvchanlik hissini, harakatni tortib oldi. Natijada Martin hayoti yakun topdi. Asarni yaqindan tahlil qilish asosida Martin obraziga, uning irodasi, jamiyatga munosabati masalasini atroflicha tadqiq etamiz.

“Martin ko'pincha, xuddi quyosh shu'lasiga g'arq bo'lgan dengizdek lojuvard tusga kiruvchi bu qo'y ko'zlarimda qalbim aks etarmikin, yo'qmi, deb savol berardi. U o'z ko'zlariga chetdan turib, uning ko'zlari bilan qarashga urinib ko'rdi”. Martin odatda boshqa odamlarning dilidagini osonlik bilan topib olardi. Chunki u odamlarning hayotini yaxshi bilardi. Sevgilisi Rufning ko'nglidagini bilish esa, uning Martinga munosabatini anglash esa mushkul edi. Sababi Martin uchun Ruf “naq mo'jizaning o'zi” edi. Martinning muhabbat to'la ko'zlarida na makr bor, na razolat u pok qalb bilan Rufga talpinar edi. Biroq Martinning hayot yo'li hali sinovlarga – tumanli yo'llar, og'ir zarba va mehirsiz ko'zlar, riyo va firib, jamiyat illatlaridagi tubanliklar bilan to'la edi. Martin bu taqdir ummonida uzilib qolgan bir yaproq singari chirpirak aylanar, o'z munosib o'rni va bahosini topa olmay qiynalar edi. Uning orzulari ulkan va yorug' edi, hatto tushlari nurli biroq, u “ uyqudan uyg'ongach, Martinning dimog'iga sovun va kir hidi urildi-yu shirin tushlarini unutdi. Quloqlari shu zahoti og'ir va ko'ngilsiz hayotning betartib shov-shuvidan qomatga keldi. U o'z xonasidan chiqishi bilan opasining baqirgan ovozini va alamini tarqatish uchun bolalaridan bittasini shapaloqlab urganini eshitdi. Bolaning chinqirig'i uning yuragiga tig'dek sanchildi. Bu yerdagi hamma narsa, hattoki o'zi nafas olayotgan havo ham unga jirkanch bo'lib tuyuldi. Bu muhit Ruf istiqomat qilyotgan uyda hukm surgan osoyishtalik va uyg'unlikka naqadar zid edi! U yerda hamma narsa ko'tarinki ma'naviy ruh bilan sug'orilgan; bu yerda esa moddiy, nihoyatda qo'pol moddiy manfaat ustun



edi, xolos”<sup>8</sup>. Asarning dastlabki sahifalaridayoq Martinning ruhiy dunyosi, hayotga qarashlari u yashayotgan muhit bilan umuman zid ekanligining guvohi bo‘lamiz. Martin hamisha ikki qarama-qarshilik, bir-biridan tamoman farqlanuvchi ikki dunyo o‘rtasida sanoqsiz savollar va ruhiy iztiroblar og‘ushida yashaydi. U o‘zi yashayotgan dunyo bilan Rufning dunyosini qiyoslaydi. Hamisha o‘zining dunyosi faqat tirikchilik g‘ami bilan g‘imirlab kun ko‘ruvchi, ba‘zan esa hayvonlardek maishat qiluvchi nafislik va madaniyatdan yiroq kishilar bo‘lib ko‘rinadi. U aslzodalar, boylar hayotining go‘zal tovlanishlariga qiziqadi. Ammo bu yaltiroq go‘zallikning ortida asli nelar borligidan hali u bexabar edi.

“Axir mana bunday hayvonlar orasida yashab turib, bir kunmas, bir kun Rufning visoliga erishishni umid qilib bo‘ladimi? O‘z qarshisidagi vazifaning mushkulligi Martinni umidsizlantirardi, u o‘z vaziyatining ya‘ni ishchilar sinfidan chiqqan kishining vaziyatini benajot ekanligini his qila boshlagan edi. Go‘yo tevarak-atrofdagi hamma narsa, o‘zi ko‘nikib qolgan hamma odamlar, o‘z hayoti bilan bevosita chambarchas bog‘langan opasi, uning uyi, oilasi, chilangar Jim – hammalari xarsang toshdek yelkasidan bosib yotar va qaddini rostlab o‘rnidan turishga imkon bermasdi. Uning uchun hayotning zavqi qolmagan edi. Shu paytgacha u hayotni qanday bo‘lsa, shundayligicha qabul qilgandi. Martin hayotning yaxshi yomonligi haqida hech qachon o‘ylab ko‘rmas, faqat kitob o‘qigan chog‘laridagina bu haqda bosh qotirar edi. Lekin ular kitob edi xolos, mavjud bo‘lmagan ajoyib dunyo haqidagi ertaklar edi”<sup>9</sup>.

Mana Martinning davr va o‘zi yashayotgan jamiyat haqidagi fikrlari. U o‘zi kabi barcha odamlar qatori hayotni tirikchilik o‘tkazish uchun berilgan fursat deb tushunar, hayot va kitoblar bir-biridan tubdan farq qiluvchi ikki qutb, aniqrog‘i, hayot va ertak deya idrok etardi.


Martinning Rufga bo‘lgan muhabbati unda hayotga nisbatan qiziqish, umid va tengsiz qudrat hissini uyg‘otdi. Rufga munosib bo‘lish ilinjida u kitob va bilimlar olamiga kirib keldi. Dastlab kutubxonada vaqt o‘tkazish keyinchalik

---

<sup>8</sup> Жек Лондон. Мартин Иден. Т., 1986й. Б.43.

<sup>9</sup> O‘sha asar Б.47

qiyin asarlarni tushunish uchun lugʻat yodlash bilan almashti. Lugʻatlar, tushunilishi qiyin soʻzlar mohiyatini oydinlashtirish asosida Martin inson va borliq mohiyatini yorituvchi ilmiy-falsafiy, badiiy asarlarni mutolaa qilishga boshladi. Har bir oʻqigan kitobi uning mushohada va savollar iskanjasiga solib tashlar, ularning magʻzini chaqishga intilar edi. Avvallari kuchini sotib, oʻz mehnati ortidan kun koʻrib yurgan Martinda endi tafakkur kurashi kuchaya bordi. Fikrlar turfa xilligi, jamiyatdagi hayotning nomuvofiq qiyofasi borgan sari bosh qahramonni oʻylar girdobi tashlar va u hayotning chin mohiyatini anglashga intilar edi. Martin tafakkuri va xarakteridagi oʻzgarishni quyidagicha ifodlash mumkin:



Asarda qarshilantirish usuli ustuvorlik qiladi. Yuqori tabaqa va quyi tabaqa hayoti; tartibsiz, ogʻir turmush tarzi va shinam, ozoda va chiroyli turmush tarzi.

“Men ilgari bunaqa hayot toʻgʻrisida faqat kitoblarda oʻqiganman, mana kitoblarda yolgʻon yozilmagan ekan. Menga yoqib qoldi. Endi shularning hammasiga erishishni orzu qildim, hozir ham orzu qilaman. Men sizning uyingizdagi kabi sof havodan nafas olishni istardim, Hamma yoq kitoblar, suratlar va har turli chiroyli buyumlar bilan toʻlishini, odamlarning sokin va ohista gapirishini, ozoda kiyinishini, niyatlari ham pok boʻlishini istardim. Men umrbod nafas olib kelgan muhit havosidan oshxona hidi, badboʻy spirt hidi anqiydi, Haqorat va ijara haqi haqidagi mojarolar eshitilib turadi”.

Martinning oʻylari, fikrlari chiroyli. U oʻziga mos bir chiroyli hayotda baxtli yashashni istaydi. Hamma narsaning goʻzal boʻlishini va goʻzal koʻrishni istaydi. Biroq hamisha ham orzu-oʻylar, niyatlar bilan real hayot muvofiq kelavermaydi. Martin ana shu nomutanosiblik oʻrtasida qiynalar edi. Martin ilmsizlik, johillik

dunyasini qoralab, Rufning dunyasini kitoblardagi fikrlarga amal qilib yashayotganlar olami deb bilar edi:

“ U kitoblardan o‘qib o‘zlashtirgan olijanob fikr va tuyg‘ular uni ma’naviy jihatdan boyitar edi. Ruf va uning oilasi mansub bo‘lgan kiborlar davrasida hamma erkak va ayollarning aynan shunday fikr va tuyg‘u bilan yashashiga endi uning imoni komil edi. Shu choqqacha u qandaydir iflos botqoqda yashadi, endi esa tozalanib, oliy darajaga ko‘tarilishni istardi”.

Dengiz safaridagi hijron va o‘z-o‘zini imtihon qilib ko‘rishga bo‘lgan bir imkon Martinda o‘ziga ishonch tuyg‘usini oshirdi. Kitoblar mutolaasi bilan birga u hech qanday qo‘shimcha ko‘maksiz ingliz adabiy tilini mukammal o‘rganishga intildi. Oz fursat –sakkiz oy ichida u nafaqat so‘z boyligini oshirdi, aql-zakovati yanada rivojlandi, o‘zini yana ham yaxshiroq bilib oldi. Inglizchada kayutadagi jentelmen va ofitserlardan ham yaxshiroq gapiradigan bo‘lib qolgan “Martin o‘zining qudratli ekanligini anglaganidan, har qanday ishga qodirligini sezganidan mast edi”<sup>10</sup>.

Ikki xil hayotni kuzatuvchisi, yashovchisi sifatida Martinda yozish istagi paydo bo‘ldi. “Yozish kerak! Bu fikr uning yuragiga o‘t solgan edi. U qaytib borgan zahoti yoza boshlaydi”. Tushunilishi qiyin bo‘lgan falsafiy kitoblar mutolaasi, ilmiy kitoblardan yig‘ilgan mushohadalar Martinning ijodkorlik tuyg‘usini uyg‘otgan edi. Endi u o‘z o‘rganganlari va kuzatganlarini yozishni xohlardi. Biroq Martin yozgan asarlar, qissa, ocherklar u o‘ylaganchalik tez va oson tarzda nashrga qabul qilinmadi. U hisoblagan gonorarlar faqat Martinning xom xayollari ekanligi bir muncha fursat o‘tgach ayon bo‘ldi. Noshirlarning befarq va loqaydligi, muttaham va aldamchiligi, Martin anglab yetgan go‘zallik va hayot mohiyatini anglab yetmagan jamiyat; o‘z maqsadi yo‘lidagi sobitqadamlik va bu yo‘ldagi ochlik, yetishmovchilik azoblari barchasi asar syujet liniyasidagi fojeaviylikning mohiyati sari yetaklaydi.

Martin qiyinchiliklarga osonlik bilan taslim bo‘lgani yo‘q. Uning hayoti tinimsiz kurashdan, o‘zlikni, hayot mohiyatini anglashdan iborat. Martin tabiatida

---

<sup>10</sup> O‘sha asar . B.83

kurashuvchanlik, isyonkor ruh bor. Bu kurashuvchanlik va isyonkorlikni esa kitoblar qatidagi bilimlar va jamiyat nomuvofiqligi berdi. Qahramon nazdida ilm uning qorong‘u, botqoqlik hayotiga nuqta qo‘yadi. Bu yo‘ldagi qiyinchiliklar hech narsa emas:

“U o‘rnidan turib ko‘zguga qaradi.

– Endi sen o‘sha botqoqlikdan qutulib chiqding, Martin, – g‘urur bilan dedi o‘ziga o‘zi, - ko‘zlaring ravshan, qo‘lingni cho‘zsang, yulduzga yetadi, chinakam hayot kechiryapsan, eng qimmatli asriy meroslarni ularning egalaridan tortib olyapsan.

U o‘z aksiga diqqat bilan tikildi-da kulib yubordi.

– Ozgina asabiylashib, hayajonlanib oldikmi? Hechqisi yo‘q! Bu xavfli emas. Sen bir vaqtlar Moy Qovoqni yenggansan, noshirlarni ham xuddi shunday yengasan, o‘n bir yildan ham ko‘proq vaqt sarf qilsang qilasan, lekin yengasan! Lekin yo‘lda to‘xtab qolishni xayolingga ham keltirma, faqat olg‘a yur. Kurashgandan keyin oxirigacha kurashish kerak”<sup>11</sup>.

Ayni Saidiyga yetishmagan kurashuvchanlik, qat‘iyatlilik Martinda qanchalar kuchli edi. U o‘z oldidagi barcha qiyinchiliklarni mardona yengib o‘tdi. Ochlikdan sillasi qurib yiqilib qolganda ham, garovga kiyim-kechaklarini qo‘yib kun o‘tkazganida ham, noshirlardan kelgan rad maktublari olganida ham, opalarining achinish hissi aks etgan nigohlari qarshisida yohud pochchalarining “takasaltang, ishyoqmas” degan ta’nali munosabatlari ham uni o‘z maqsadi yo‘lidan qaytara olmadi. Rufni otasining unga ish berib marhamat ko‘rsatishi bildirilgan iltijolari ham besamar ketdi. Chunki u o‘zganing marhamatini qabul qilib, o‘z maqsadini qurbon qilmoqchi emasdi. Ruf o‘zi mansub sinfga xos holda Martinning dunyosini tushunmadi, uning qiziqishlari qiz uchun ahamiyatsiz edi. U zo‘r berib otasi va Martin o‘rtasida do‘stona rishtalarni bog‘lashga urinar edi. Biroq bu ikki sinf, ikki xil dunyo hech qachon bir-biri bilan kelisha olmaydi.

Martinning hayot, jamiyat davr haqidagi qarashlari bosqichma-bosqich o‘zgara bordi. U avvallari barcha xunuklik, qoloq madaniyat ilmsizlikdan iborat.

---

<sup>11</sup> O‘sha asar . B.149

Ilmsizlikni bartaraf etsa, barchasi hal bo‘ladi. Go‘zal hayot o‘z-o‘zidan unga peshvoz chiqadi, deb o‘ylagan edi. Lekin u intilgan go‘zal hayot, u yaxshi deb o‘ylagan odamlar davrasi u o‘ylaganchalik emas ekan.

“Morzlarnikida bo‘lgan bu o‘tirish Martinning dilida juda g‘alati va bir-biriga zid hislar tug‘irdi. Qilmoqchi bo‘lgan ishidan ko‘ngi sovidi, o‘zi yuksak saviyali deb o‘ylagan odamlardan hafsalasi pir bo‘ldi, vaholanki, Martin ularning saviyalariga yetishishni orzu qilardi. Ikkinchi tomondan, erishgan muvaffaqiyati unga dalda berdi. E’tibor qozinish u o‘ylaganidan oson ekan. Martin yuksaklikka ko‘tarilish qiyinchiliklarini yengib olish bilan birga o‘zi tenglashmoqchi bo‘lgan odamlardan yuqorilab ketgan edi”<sup>12</sup>. Endi unga hatto professor darajasidagi odamlarning fikri oddiy, u hayotni ham, kitoblarni ham ulardan yaxshi bilar edi. U intilgan doira odamlarining “ aksariyati qip-qizil nodon odamlar, qolgan to‘qson foizi chidab bo‘lmaydigan darajada ruhsiz odamlar edi”.

Shunday qilib, Martin dunyoni, o‘zi yashayotgan davrni boshqacha nigoh ila idrok eta boshladi. Bu idrok qilish davri esa uning asarlarini asta-sekin gazeta va jurnallarda nashr etilish davriga to‘g‘ri keldi. Bir jihatdan Martinda mashhurlik kasali yohud xudbinlikning namoyon bo‘lishiga o‘xshaydi. Biroq unda bir qadar xudbinlik bo‘lsa-da, aslo mashhurlik kasali emas. U ko‘p o‘qigani, hayot haqida yozgani sari hayot mohiyatini teran anglab borar va bu tahlit muhit unga muvofiq kelmay borardi. Uning fikricha, “Muxbir bo‘lish-ertadan kechgacha kosiblik qilish shu ishga sho‘g‘ib ketish demakdir. Muxbir faqat muxbirlik to‘g‘risida o‘ylay oladi, allaqanday uslub to‘g‘risida bosh qotirishga vaqti ham bo‘lmaydi”. U o‘zini sarson qiynagan, asarlarini hatto o‘qimay yaroqsizga chiqargan, gonorarlarini mutahamlik bilan o‘zlashtirib yuborgan noshirlardan goho g‘azablansa, goho ularga achinar edi. Qahramon fikricha, muharrirlarning barchasi yozishga urinib ko‘rishgan, ammo muvaffaqiyatsizlikka uchraganlar. Ijodning sermashaqqat zinapoyalarida u ko‘pchilikning fikriga zid keluvchi haqiqatni kashf etdi: “adabiy muvaffaqiyatning barcha eshiklarini mana shu soqchi itlar, ya’ni ishi o‘nmagan adabiyotchilar qo‘riqlaydi. Muharrirlar,

---

<sup>12</sup> O‘sha asar. B.257

taqrizchilar, umuman qo‘lyozmalarni o‘qiydiganlarning hammalari bir vaqtlar yozuvchi bo‘lishni orzu qilgan, ammo bo‘la olmagan odamlardir Adabiyot taqdirini hal qilish huquqiga ega bo‘lgan eng so‘nggi bosqichda turishi lozim bo‘lgan mana shu odamlar nimani chop qilish keragu kerak emasligini hal qiladilar. Mana shu o‘rtamiyona kishilar asarning originalligi va iste’dod haqida fikr yuritadilar”.

Ress Brissendenning Martin bilan tanishuvi, uni chinakam ilm odamlari bilan tanishtirishi va umrining so‘nggi vaqtlarigacha Martin uchun homiylik qilishi Martin Iden hayotidagi do‘sti va hammaslagini topgan yorug‘ kunlari edi. U Martinning asarlarida chinakam go‘zallikni, san’atning qiyofasini ko‘ra olgan yagona shaxs edi. Martinning asarlari kelajak asarlari ekanligini, qolgan barcha narsalar ahamiyatsiz ekanligini uqtirardi. “Muhabbat sonetlari” , “Parizod va marvarid” she’riy to‘plamlarini o‘qigach, undagi bu fikrlar yana-da qat’iylashadi. Ya’ni Martin Iden chindan buyuk iste’dod egasi, biroq uni tushunish u yashayotgan jamiyat uchun xos emas.

Martin –murakkab tabiatli shaxs. Unda kuch-quvvat, iste’dod mujassam, shuning bilan birga xudbinlik, bir oz shafqatsizlik, o‘z “meni”ni ustun qo‘yish illatlardan ham holi emas. U – bilimdon, biroq bu bilimdonlik ortida bir oz kibr bor. U –sof muhabbat egasi. U muhabbatdagi sof tuyg‘ularni sevgilisidan-da ustun qo‘yadi. Mana uning davr va insonlar haqidagi qarashlari. Yozuvchi o‘z qahramonini katta hayot ummoniga o‘zi suzib chiqishi uchun qo‘yib yubordi. Qahramon o‘z iroda kuchi ila bu sinovlarni yengib o‘tdi. Biroq bu kurash uning hayotini mazmuni edi. Kurash yo‘lida maqsadiga erishgach, ya’ni iste’dodning e’tirofi uning ortidan esa pul va moddiy boyliklar, shon-shuhrat, hatto muhabbatning qaytishi endi Martin uchun hayotni rangsiz qilib qo‘ydi. Unda loqaydlik, hayotdan norozilik, tushkunlik ustunlik qildi. Bunga u zo‘r berib, jonini jabborga berib intilgani – asli sarob ekanligi sabab bo‘ldi. Uning hayolida yaralgan dunyo u duch kelgan dunyo bilan muvofiq kelmadi. Martinning insonlar, jamiyat, davr, hayot to‘g‘risidagi o‘ylari boshqa edi. U o‘zi o‘ylagan orzulariga erishganda insonlardagi mislsiz ikkiyuzlamachilikning shohidi bo‘ldi. Bir vaqtlar

Martinning asarlarini yaroqsiz deb chop etmagan noshirlar endi unga takalluf bilan murojaat qilar, asarlari uchun katta gonorar va'da qilar edi. Vaholanki, Martin kunlab och qolgan paytlarida uni nashriyotdan deyarli haydab solgandilar. Vaholanki, Martin endilikda ularga tortiq qilgan asarlar o'sha davrlarda e'tibor va pisand qilinmagan asarlar edi. Martin deyarli hech narsa yozmay qo'ygandi. U hayolotidagi dunyo va odamlarni mutanosiblashtira olmay arosat o'tida yonardi.

Mol-dunyoga ega bo'lgach, avvalo, eng og'ir kunlarda uni suwab turgan yaqin do'stlariga keyin singillariga yordam qo'lini cho'zdi. Ularga katta miqdorda pul va ko'chmas mulklar in'om etdi. Boylik oldida opalarining erlarida yuz bergan o'zgarishlar Martinning g'ashiga tegardi. U endi takasaltang, bolalarga yomon ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan tog'adan obro'li, hatto shaxsiy biznes uchun reklama qilishga arzirli qarindoshga aylangan edi. Bu kabi holatlar Martinning dunyosini to'zg'itib yubordi.

O'zinning eng samimiy tuyg'ularini Ruf timsolida ko'rgan Martin Rufning boshqa qirralarini ham kashf etdi. Rufning muhabbati o'z doirasidagi, shu muhit tartib-qoidalariga amal qiluvchi shaxs bilan ekan. U Martindagi evrilishlarni o'tkinchi, yohud o'z doirasiga moslashish yo'lidagi bir qadam deb o'ylagan edi. Biroq Martinning omadsizliklari ko'nglining sovushiga, Martindan uzoqlashishga olib keldi. Martin shon-shuhrat cho'qqisiga ko'tarilganida esa o'z g'ururini bir chetga yig'ishtirib bosh egib keldi. Bu esa Martinning yanada ko'ngili sovushiga, unga nisbatan hissizlikka olib keldi. Martin muhabbat borasida ham sarobga uchragan edi. Uning muhabbat haqidagi qarashlari faqatgina hayolotida qoldi.

Asarda qahamonning ichki olami, ruhiy dunyosi psixologik tahlillar asosida teran yoritib berilgan. Monologlar, ichki monologlar, xarakterlar rivojida Martinning to'laqonli tasviri namoyon bo'ladi.

Martin - o'zi yashayotgan davrga sig'magan iste'dod. Uning ijodini jamiyat osonlik bilan qabul qilmadi yohud uni ijod dunyosi qiyinchilik bilan tan olindi. Martin ham o'z tasavvuridagi dunyosiga o'zi yashayotgan dunyoni sig'dira olmadi. U ham jamiyatni, davrni tan olgisi, aniqrog'i, kelishgisi kelmadi. Chunki

u qalban yuksak edi. Shuning uchun o‘z ixtiyorini to‘lqinlar bag‘riga mardona topshirgancha, hayotni tark etdi. Ya’ni o‘z fojeasini anglagan holda shu yo‘lni tanladi.

“Sarob” romanining qahramoni Rahimjon Saidiy – iste’dodli, bilimdon va orzuli inson. Shuning barobarida irodasi zaif, xudbin, izzattalab, shuhratparast, muhitga moslashuvchan shaxs. Undagi bu sifatlarning shakllanishida albatta, u yashagan muhit sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Mazkur davrning o‘zi turli qarashlar, guruhlar ta’sirida bo‘lganligi, jamiyatdagi o‘zgarishlar(jamoalashtirish, mavjud mafkurani ko‘klarga ko‘tarib maqtash, soxta davr qahramonlari yaratish) Saidiyning esankiratib qo‘ydi. Natijada Saidiy fojeli sari yuz tutdi. Biroq barcha ayb jamiyatdagina emas. Saidiyning tabiatida ham. Agar u irodali, maqsadi aniq va vijdonli bo‘lganida asar boshqacha yakun topgan bo‘lar edi. Biroq yozuvchining maqsadi boshqa. U ana shu murakkablik girdobiga qahramonini uloqtirib, undan qanday chiqib keta olishini kuzatadi. Va asli bu bilan kitobxonga saboq beradi. Asarning badiiy-estetik va didaktik mohiyati ham shunda.

Adabiy talqinlarda Jek Londonning “Martin Iden” asaridagi Martin va Abdulla Qahhorning Saidiy obrazlarini “T” sxemasi asosida qiyoslaymiz. Bunda umumiy jihatlarga e’tibor qaratamiz:

<b>Martin Iden</b>	<b>Rahimjon Saidiy</b>
Ijodkor	Ijodkor
Farqli sinf vakilasiga muhabbatli	Farqli sinf vakilasiga muhabbatli
Sevgilisi Ruf	Sevgilisi Mo‘nisxon
Ijodining e’tirof etilishi qiyin kechdi	Ijodining e’tirof etilishi qiyin kechdi
Atrofidagilarning qo‘llab-quvvatlashi asosida o‘zgardi	Atrofidagi insonlarni o‘rganishga harakat qildi
Taqdiri fojeali	Taqdiri fojeali

Har ikki obraz o‘rtasida muayyan darajada mushtaraklik bo‘lgani bilan o‘ziga xos jihatlari talaygina. Uni quyidagi jadvalda ifodalashga harakat qildik:



<b>Rahimjon Saidiy</b>	<b>Martin Iden</b>
Iqtidorli	O'ta iqtidorli
O'zi yashagan muhit bilan kelisha oladigan	Jamiyat munofiqliklari bilan mutlaqo kelisha olmaydi
O'z maqsadi yo'lida kurashda ojiz	Kurashuvchan, maqsadi yo'lida sobitqadam
Sabr-toqat yetishmaydi, moslashuvchan	Sabrli, toqatli, moslashish unga yot
Mustaqil fikriga ega emas, tez-tez o'zgaruvchan	Mustaqil fikrli, ahdida qat'iy
Xudbin, o'z "meni" xudbinligi qurboni	Jamiyat qurboni, o'z davriga sig'magan shaxs
Serhimmatlik, sahiylikdan uzoqroq	Oqibatli va serhimmat
Muhabbatida hoyu havas ustun	Muhabbat borasidagi ideali reallik bilan to'g'ri kelmadi

Bunday qiyosiy tahlillar asosida qahramonlar xarakteridagi mushtarak va farqli jihatlar yaqqolroq oydinlashadi. Shuningdek, davrlar qiyosi ham o'ziga xos ma'lumotlar beradi.

<b>"Sarob"dagi davr muammolari</b>	<b>"Martin Iden"dagi davr muammolari</b>
O'tgan asr 30-yillar o'zbek hayoti	XIX asr ingliz hayoti
Sho'ro siyosati	Kuchli siyosiy tabaqalanish
"millatchilar" guruhi	Xalq harakatlari
Jamoalashtirish siyosati	Moddiy qiyinchilik
Ijod olamidagi soxtalik, andozabozlik,	Ijod olamidagi noxolislik, to'sqinlik va ma'naviy qashshoqlik

Mazkur asarlarni sotsiologik va biografik metodlar asosida qiyosan tadqiq etish ko'plab ma'lumotlar berishi muqarrar. Qiyoslashlar asosida har ikki asardagi qahramon va davr muammosi yaqqolroq namoyon bo'ladi. Martin yashagan muhit Saidiyning muhitidagi qiyinchiliklardan ko'p bo'lsa borki, kam emas. Ammo Saidiyda ularni yengib o'tishga chidam, iroda yetishmadi. Martin esa hayotining mazmuni bo'lgan kurash, ziddiyatdan holi bo'lganda umrning qimmatini qolmadi. Demak, umrning mazmuni moddiy to'kislik va shuhrat cho'qqisida emas, kurashda. Asar mana shu jihati bilan yana-da qadrlidir.

## **TASVIRLAR, TALQINLAR, TAASSUROTLAR**

### **Abdulla Qahhor yaratgan portretlar**

Abdulla Qahhorning hikoyanavislik faoliyati haqida so'z borganda u o'zbek hikoyanavisligini yangicha taraqqiyot yo'liga solgan adib sifatida e'tirof etiladi.

Abdulla Qahhor hikoyalari aksar tugundan boshlanishi, ularda asarning g'oyaviy mazmunini ifodalovchi epigrafning keng qo'llanishi, hajman ixcham, lekin ma'nosi keng va teranligi bilan ajralib turishi ma'lum. Adib hikoyalari xuddi mag'zi to'q yong'oq singari, bir qars etib ochiladiyu, ichidagi moy – boy ma'no- mazmun, yuqori ta'sirchanlik namoyon bo'ladi.

A.Qahhor hikoyalari qahramonlarning o'ziga xos talqini, voqelik jarayonida ularning ruhiy-psixologik holatlarini teran ifoda etilishi bilan xarakterlidir.

Adib qiyin vaziyatga tushgan qahramonini o'z irodasi, matonati bilan bu to'siqni yengib o'tishini xohlaydi. Unga taskin yupanch kerak emas, u o'z kuchiga, ertangi yorug' kuniga ishonadi. Masalan, «Ming bir jon» hikoyasida Mastura, «Asror bobo» hikoyasida farzand g'amida kuygan Asror bobo obrazlari misolida insonning kuchli irodasi, sinmas ruhiyati yaqqol namoyon bo'ladi.

Masturadagi ruhan tetiklik uni o'ldi, deb o'ylashib uyiga tobut keltirishganda ham, xuddi o'likdek «sap-sariq teri-suyakdan iborat» jismini ko'rib hushidan ketayozgan erkaklarni lol qoldirib, hazil qilganda ham, hayotga, yashashga bo'lgan intilishi aks etib turadi:

– Akramjon, xotira daftaringizga yozib qo‘ying: uch mardiy-maydon meni ko‘rgani kirgan edi, bittasi arang qochdiyu, ikkitasi qochgani ham bo‘lmay, o‘tirib qoldi<sup>13</sup>.

A.Qahhorning portret yaratish mahorati o‘ziga xos. U ixcham janr-hikoyaning imkoniyatlaridan kelib chiqib, portretni batafsil emas, yo‘l-yo‘lakay, voqelik jarayonida berishni ma’qul ko‘radi. «Asror bobo» hikoyasida Asror boboning siymosi voqealar rivoji bilan birga namoyon bo‘la boradi.

Adib yaratgan kontrast portretlar kitobxonda hayrat va taajjub uyg‘otadi:

«Dotsent Muxtorxon Mansurov nihoyatda istarasi issiq, dilkash chol, shu qadar dilkashki, uni ko‘rgan kishi har faslning o‘z husn tarovati bor degan gapni yil fasllari to‘g‘risidagini emas, umr fasllari to‘g‘risida ham aytsa bo‘lar ekan, deb qoladi. Uning bitta-ikkita qora tuk chap berib qolgan oppoq cho‘qqi soqoli... Yopirimay, soqol ham odamga shuncha yarashadimi-ya!..”

«Shunday chiroyli soqolini tag-tugi bilan qirdirib tashlagan... domla boshida chamandagul do‘ppi, egnida kalta va tor shim, katak ko‘ylak, engini baland shimargan, bilagida kattakon tilla soat, o‘zi yakka pivo ichib o‘tirgan emish! ...<sup>14</sup>

Kichik bir hikoyadagi voqelik talqinida insonning butkul qarama-qarshi portreti, ruhiy tasviri namoyon bo‘ladi. Inson shu qadar murakkab mavjudotki, turli holatlarda uning yangidan- yangi qiyofasi kashf etiladi. Adib shu yo‘l bilan qahramonlarning o‘zgacha xarakter va siymolarini aks ettirib boradi, xarakterlar rivojini ta’minlaydi. Ayniqsa, satirik va hajv bilan yo‘g‘rilgan talqinlar portertni yaqqol namoyon etib, asar qimmatini oshirishga xizmat qilgan.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, hikoyachilikda o‘ziga xos maktab yaratgan ijodkor sifatida A.Qahhor ijodi katta bilim va tajribani o‘zida mujassam etgan. A.Qahhor ijodining o‘ziga xosliklari qahramon portretini yaratishda, qahramonlarning ruhiy-psixologik holatini ochib berish va aniq maqsadga yo‘naltirilgan peyzaj tasvirini qo‘llashda emotsional-ekspressivligi yuqori jumlalarni tanlay bilishida namoyon bo‘ladi.

---

<sup>13</sup> Qahhor A. Saylanma T., 1987, B.318

<sup>14</sup> O‘sha manba. B. 314

## So`zdan yaralgan tasvirlar

Sinkretiklik badiiy san'atning ilk shakllanish bosqichida yorqin namoyon bo'lgan hodisa hisoblanadi. Ya'ni sinkretizm bir adabiy hodisa, janr yoki adabiy turda boshqa san'atga xos xususiyatlarning namoyon bo'lishidir. Sinkretizm – grekcha sinkretismos so'zidan olingan bo'lib, birikish degan ma'noni ifodalaydi<sup>15</sup>. Folklor zahirida musiqa, raqs, qo'shiq kabi san'at turlariga xos xususiyatlarning namoyon bo'lgani kabi bir adabiy turda boshqa adabiy turga xos xususiyatlarni kuzatish mumkin.

Bugungi adabiy jarayon, adabiy tanqidchilikda badiiy sintez atamasi tez-tez tilga olinmoqda. Bu atama mazmun mohiyatan sinkretiklikka yaqin, bir-biriga uyg'unlashuv, birikuv har ikki atamaning umumiy jihatlaridir. Biroq sinkretiklik badiiy san'atlararo kuzatiluvchi hodisa bo'lib, uning paydo bo'lishi adabiyotning ilk shakllanish bosqichlariga dahldor va uning yuzaga kelishi tabiiy holda ro'y bergan. Sintez esa adabiyot yohud fanning rivojlanish bosqichiga dahldor bo'lib, bunda muallif tasvir va talqin jarayonida rang-baranglikka erishish maqsadida shunday mantiqiy usuldan foydalanadi. Sintez yunoncha birikish<sup>16</sup> degan ma'noni anglatadi. Asl ma'nosi "ikki moddaning bir-biriga birikib ketishi", ko'chma ma'noda esa "umumlashgan birlik, umumlashma"dir.

Istiqlol davri adabiyoti mazmuniy va shakliy yangilanishlarga, turfa talqin usullariga boyligi bilan xarakterli. Xususan, Cho'lponning tafakkur va ijod mahsuli sifatida kirib kelgan personajli lirika mustaqillik davri adabiyotida yangi ufqlarni, badiiy sintez singari adabiy usullarni kashf etdi. Badiiy sintezning go'zal namunalari she'riyatimiz mazmun-mundarijasini boyitish barobarida lirikaning o'ziga xos qiyofasini yarata oldi. Bu esa adabiy tanqidchilikda ham turlicha qarash va munozaralarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

“Personajli lirika drama bilan lirikaning sintezlashuvidir”. Shuningdek, “XX asr kinoning g'oyat shiddatli rivojlanish va ommalashish bosqichi bo'ldi. Ommalashish shu darajadagi, kino san'ati davr kishisining dunyoni estetik ko'rishi

---

<sup>15</sup> Литературный энциклопедический словарь. М., Сов. энциклопедия. 1987, С.380

<sup>16</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т.20 Б.391

va idrok etishida yetakchilik maqomiga chiqayozdi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Tabiiyki, bu sharoitda she‘riyatning kinoga xos tasvir va ifoda imkoniyatlariga bee‘tibor, ulardan bebahra qolishi mumkin emas. Albatta, o‘z vaqtida kino so‘z san‘atidan ifoda va tasvir imkoniyatlarini o‘zlashtirgani shubhasiz. Bas, ehtimol, bu o‘rinda so‘z san‘ati imkonlarini kino qozonida obdon qaynatib, qiyomiga yetkazib olgani haqida gapirsak, to‘g‘riroq bo‘lar?!<sup>17</sup> – deya fikr bildiradi adabiyotshunos D.Quronov. Ko‘rinadiki, bugungi o‘zbek lirikasida dramaga xos xususiyatning yohud kinomatografik bayonning aks etishi she‘riyatni nafaqat qalban anglash, balki tasavvurlar zamirida ko‘rish imkonini ham bermoqda. Bu esa dunyoni estetik idrok etishning ta‘sirchan usullaridan biridir. Kitobxon she‘rni o‘qish jarayonida o‘zini bevosita shu epizod, holatning ichida tasavvur etadi, shu hayot bo‘lagida “yashab ko‘radi” va lavhani yorqin anglay oladi. Biz bu borada “80 yillar oxiri, 90-yillar boshlari o‘zbek she‘riyatining lingvopoetik tadqiqi” nomzodlik dissertatsiyamizda ham munosabat bildirib o‘tgan edik. Ishimizda aynan “kino qozonida obdon qiyomiga yetgan” yohud kinoga xos jihatlari zuhur etgan she‘riy namunalari tahliliga to‘xtalamiz.

Cho‘l yo‘li,  
Bo‘z tuproq mung‘ayib yotar,  
Nogoh  
uning quloqlarin o‘pa boshladi.  
Otlar tuyog‘ining dupur-dupuri.  
Yo‘l entikdi, yuragi  
Qattiq-qattiq ura boshladi.  
So‘ng havoda qiyqirab,  
uzoq-uzoqlarga suzib ketdi,  
Chang – yo‘llarning baxtiyorligi<sup>1</sup>.

Lirik qahramon cho‘l yo‘lidagi manzarani go‘yo operatordek kuzatadi va kitobxonga kino lentasiga yozilgandek taqdim etadi. Chunki bu tasvirda harakat,

<sup>17</sup> Д.Қуронов Мутолаа ва идрок машқлари. Т., Академнашр, 2013, Б.202

<sup>1</sup> Аъзам Ўктам. Тараддуд. - Т.: Чўлпон, 1993. Б. 58.

ovoz, emotsional-ekspressiv ta'sirchanlik bor. Kitobxon ham nafaqat kuzatadi, balki shu tabiatning bir bo'lagi ichida uning bir qismi sifatida yashaydi. Shoir tabiat lavhasini kino talablariga ko'ra aks ettirsa, bo'z tuproqning "intiqligi, ruhiy kechinmasini, baxtiyorligini" shoirona qalb bilan his etadi. Shoir tuproq yo'lga, otlar dupuriga nisbatan insonga xos bir necha xususiyatlarni ko'chiradi: mung'ayib yotar, quloqlarin o'pa boshladi, entikdi, yuragi qattiq-qattiq ura boshladi, qiyqirab, suzib ketdi. Jonlantirishda bir obyektga nisbatan bir-birining davomi sifatidagi bunday fe'llarning qo'llanishi jonlanayotgan obyektning davomli harakatini va tasvirning muayyan vaqt oralig'idagi davomiyligi, harakatliligini ta'minlagan.

Qora chakmon kiygan oq sallali chol,

Qo'r to'kib o'tirar salobat bilan.

Kun chiqdimi, deya qayrildi shu on

Chuvalanib ketdi sallasi birdan.

Quyosh xandon otib kular yoyilib,

Chol kuymanar, o'zin eplolmas biroq.

Erkin bo'lganiga behad suyunib,

Chopib ketib borar o'ynoqi irmoq.

Shoirning «Qor erishi» deb nomlagan she'rida tabiat manzarasi juda chiroyli jonli aks ettirilgan. Tog'– «Qora chakmon kiygan oq sallali chol». «Quyoshning xandon tashlab yoyilib kulishi», «chuvalanib ketgan sallaga o'xshatilgan erkin o'ynoqi irmoq» tasvirlari peyzaj tasvirini jonli, harakatli va juda qiziq aks ettirgan. Tasvirda tabiat manzarasiga hamohang, parallel milliy ruh bilan yo'g'rilgan yana bir manzara namoyon bo'ladi.

Tog'lar some' bo'lib o'ltirishar jim,

Takbir aytgan chog'i guldirab samo.

U yanglig' munojot qila olur kim,

Yomg'ir– bu pichirlab qilingan duo.

Yel yig'lar yer tirnab, tuproq seskanar,

Maysalar qaltirab qilurlar sajda

Duolar ijobat bo‘lgan sanalar,  
Kun nurlari bundan keltirar mujda.

A‘zam O‘ktam ijodida tabiat tasviri, manzara to‘g‘ridan-to‘g‘ri aks ettirilmay, majoziy aks ettirilgani bilan xarakterlidir. Unda tabiat hodisalari va manzara xuddi inson singari jonlidek, his qila olish, faoliyat yuritish, hatto turmush tarzi, ruhiy kechinmalari ham insonga xos tarzda aks ettiriladi. Bunday tasavvur ildizlari mifologik tasavvur bilan aloqador bo‘lib, u aslida tabiat, manzara bilan ruhan yaqinlik, jonli tasvir yaralishining asos omilidir. Ya‘ni shoir tasvirni jonli, kino lentasiga yozilgandek bir-birining davomi sifatidagi harakatlar asosida yaratadi. Bu jonlilik shu darajada mohirlik bilan yaratilganki, unda milliylik ham, ko‘tarinkilik ham jam bo‘la olgan.

Badiiy sintez ijodkorga ham shoirlik, ham rassomlik, ham kino san‘atining mas‘uliyatini she‘rga esa mazkur san‘atlarga xos jozibani baxsh etadi. Buning asosida esa turfa ranglar, ajib tasvir va jonli harakatu ovozlilik bilan yo‘g‘rilgan san‘at namunasi yaratiladiki, uning emotsional-ekspressiv ta‘sirini mezonlar asosida belgilash qiyin. Badiiy sintez hodisasi bugungi ruhiy ehtiyojimizning go‘zal hosilasidir.

### **Daftar hoshiyasidagi oila bitiklari**

Oila, ota-ona va farzand munosabati, farzand tarbiyasi kabi masalalar badiiy asarlar mavzusining asosiy rishtalaridan, o‘q tomirlaridan biri bo‘lib kelgan. Buni “Qobusnoma”, “Qutadg‘u bilig”, “Hibatul haqoyiq” asarlaridan tortib, bugungi adabiy jarayonda yaratilayotgan asarlar misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Ana shunday asarlardan biri O‘tkir Hoshimovning “Daftar hoshiyasida bitiklar” asaridir. Bu asar ko‘hna adabiy an‘analar va yangicha izlanishlarni o‘zida mujassam etgan asar sifatida e‘tirofqa loyiq.

Ma‘lumki, aforizm (yun. arhorismos - ta‘rif, ixcham ifoda) - muallifi ma‘lum bo‘lgan, ixcham shaklda va ta‘sirli ifoda etilgan umumlashma fikrdir.<sup>18</sup> “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” asari janr jihatidan aforizmlar sifatida talqin etilsa-

---

<sup>18</sup> Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. Т. Академнашр, 2010. Б.39.

da, tarkibida muayyan voqeliklarning tasviri asosida kitobxonni o'yga, mushohadaga chorlaydigan sujetli o'rinlari ham talagina. Yozuvchi turmush tajribalari asosida shunday xarakterli epizodlarni talqin etadiki, bu kitobxonni o'z hayot yo'liga yana bir nazar tashlashga, uni taftish qilishga undaydi. Shu jihatlariga ko'ra asardagi fikrlarni an'analar asosida yaralgan aforizmlar, mantiqiy xulosalar va aforistik ma'nosi yashirin syujetlilik mavjud aforizmlarga tarkiblashimiz mumkin. Bu esa yozuvchining o'ziga xos novatorona tajribasidir. Ya'ni yozuvchi didaktik mazmuni berishning yoqimli va qiziqarli usulini o'ylab topgan. Oddiy nasihatdan ko'ra oynadagi aks asosida xulosa chiqarish samaralidir.

“Dunyoda eng bebaho, ammo hamisha benazir tarqatiladigan bir xazina bor. Bu – Ona mehri!”, deya e'tirof etiladi asarda. Bu fikrlar orqali muallif onaning oiladagi, jamiyatdagi beqiyos o'rnini ta'kidlab, uning mehrini bebaho xazina sifatida talqin etmoqda. Darhaqiqat, ona mehri jasoratlarga undovchi, dunyo yuzida ezgulik deb atalmish bo'stonni yashnatuvchi sehr kuchiga egadir. Shuning uchun ham inson hamisha onaning mehr taftiga ehtiyoj sezadi.

Asarda oilaning fayzi tinchlik, orastalik, mehr-oqibat bilan ekanligi o'zbekona tavsiflar asosida e'tirof etiladi. “...qaldirg'ochlar fayzsiz, noahil xonadonga in qurmaydi...”, “o'zbekning xonadonidan non va rayhon isi keladi” kabi talqinlarida chinakam milliy ruhiyatni sezamiz.

“Farzandlarimga o'gitlar” bo'limidagi fikrlar xuddi “Temur tuzuklari” kabi Otaning farzandiga nasihatlarini singari yangraydi: “Qush bo'lib, osmonda uchma. Toshbaqa bo'lib, yerda sudralma. Daraxt bo'l! Boshing osmonda, oyog'ing yerda bo'lsin! “Menga yuz marta ozor bersang, kechirishim mumkin. Onangga bir marta ozor bersang, kechirmayman: onang senga mendan ko'ra yuz hissa ko'p mehr bergan!”, “Noningni yo'qotsang ham nomingni yo'qotma!”

Odatda aforizmlarda muallif munosabati, xulosa va falsafiy mushohada asosida aks etadi. O'tkir Hoshimov aforizmlarida esa hissiy munosabat ham yorqin aks etgan o'rinlarni uchratishimiz mumkin. Ya'ni muallif vaziyat-holatlarni oddiy kuzatuvchi va baholovchigina emas, unda jonkuyarlik, emotsiyali



munosabat ham ustuvor. Bu uning oila muammolarini yoritishida ham seziladi. “Oshsiz uy bor, urushsiz uy yo‘q”, deyдилar. Oilangda janjal chiqsa, eng avval farzandlaringni o‘ylab ish qil”, deya ta’kidlagan muallif oilani yemiruvchi salbiy munosabatlarga qarshiligini ochiq ifoda etadi:

“Uyni qonuniy bo‘lishdingiz... Mol-mulkni qonuniy bo‘lishdingiz... Muhabbat bo‘laklandi... Sadoqat bo‘laklandi...

Bola-chi? Bolani qaysi qonun bilan bo‘lashasiz? Onasi bilan bo‘lsa, otasiz qolsa. Otasi bilan bo‘lsa. Onasiz qolsa... Yaxshisi, uniyam ikkiga bo‘ling! Bir nimtasi –erga!. Bir nimtasi-xotinga! Qani ko‘taring boltani, bolani uvoli tutgurlar!”

Bu tasvirlar orqali muallif ajralishlarning fojeasini yaqqol ko‘rsatib beradi. Ushbu muammoga har bir inson e’tiborini qayta va qayta jalb qilish chinakam fojellikni anglashga undash bor.

Asarda ta’kidlanganidek, “Oilani muqaddas bilmaganlar uchun muqaddas narsaning o‘zi yo‘q”. Muqaddas narsalar xususida esa yonib so‘zlamalik mumkin emas.

### **Kavsar ifor kitob**

“Qahramon – bu ijodiy niyatlar, badiiy-falsafiy g‘oyalar qay tariqa, qanaqa shakllarda ifodalandi, degan gap. Asardagi qahramonlar estetik idealning rangin qirralarini yoritishga xizmat qiladi”<sup>19</sup>. Demakki, yozuvchi g‘oyaviy-badiiy niyatining ifodasida, ayniqsa, ijodkor shaxsning asosiy qahramon qilib saylanishi asarga o‘zgacha ruh beradi.

Abdulla Oripovning “Jannatga yo‘l” dramatik dostonidagi qahramonlarning birortasiga nom berilmagan. Odatda asarning asosiy yetakchi g‘oyaviy-badiiy mazmunini yoritishda u qadar muhim rol o‘ynamaydigan obrazlar nomsiz aytib o‘tilar edi. Bu yozuvchi kitobxonning xotirasini ortiqcha narsalar bilan band qilmaslik istagi tufayli yuzaga keladi. Ba’zi o‘rinlarda esa yozuvchi qahramonning ismini atamasdan ham ifodalamoqchi bo‘lgan fikr va g‘oyasini

---

<sup>19</sup> Раҳимжонов Н. Бугуннинг қаҳрамони ким.// “Ўзбек адабий танқиди” антология. Т., 2011. Б. 29

aniq va tiniq bera olishi mumkin. Shuning uchun bu personajlarni nomlashga ehtiyoj bo'lmaydi.

“Adabiy qahramonlar ismini atamaslikning yana bir izohi yozuvchining mazkur qahramonga o'xshash odamlarning hayotda ko'plab uchrashiga, ularning tipikligiga va o'quvchining bu qahramon xatti-harakati va so'zlariga shubha qilmasligiga to'la ishonganligida, shu tufayli bunday obrazlarni maxsus individuallashtirishga ehtiyoj sezmaslikda ko'rinadi”<sup>20</sup>, – deya fikr bildiradi U.Qosimov.

Yuqoridagi fikrlar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, dramatik dostonning asosiy mavzusi abadiy mavzulardan biri inson va hayot muammosi, shuningdek, unda do'stlik, ota-ona va farzand, qilmish-qidirmish kabi umuminsoniy mavzular ham yoritilganki, bu barcha insoniyatga tegishli, alohida nomga mansub ba'zi insonlargagina xos emas. Asardagi doril fano va doril baqo masalasi ham irqi, millati, yoshi, jinsi, kasbu kori, qiziqishi, mansabu davlatidan qat'iy nazar hamma uchun birdek tegishli va ahamiyatli. Shuning uchun shoir qahramonlarni umumiy nom bilan Yigit, Do'st, Ota, Ona deya ataydi. Ular– siz, biz, barchamiz. Asardagi har bir qahramon ortida minglab, millionlab inson timsoli mujassam. Shuningdek, asardagi voqealar u dunyoda bo'lib o'tadi. U dunyoda esa barcha barobar, u yerda ism muhim emas. Yaratgan oldida barcha barobar u– Inson.

Asarda Kimsa kabi obraz ham borki, uning hatto sifati ham aniqlashtirilmaydi. U barcha razillik va pastkashliklarning timsoli. U bir nom bilan Kimsa deya ataladi. Agar shoir uni ig'vogar, yozg'uvchi deb ataganida edi, ma'no va obyekt konkretlashib, qolgan maraz illatlar chetda qolishi mumkin edi. Shuning uchun shoir zaminida barcha razilliklarni jamlagan, hatto ism ham or qiladigan Kimsa nomini qo'llaydi. Shu o'rinda atoqli yozuvchi Abdulla Qahhorning bir so'zini keltirib o'tish joiz: “Men muttahamning nomini aytmayman, chunki bular bitta emas, yana tug'ilishi mumkin. Men misol uchun

---

<sup>20</sup> O'sha asar. B. 130.

bittasini aytsam, o‘ntasi erkin nafas oladi”<sup>21</sup>. Fikrimizcha, shoir Abdulla Oripov ham ana shu tamoyilga amal qilgan.

“Jannatga yo‘l” dramatik dostonining yaratilganiga 40 yilga yaqin vaqt bo‘lsa-da, u o‘quvchilar, kitobxonlar oldiga ko‘plab dolzarb umuminsoniy muammolarni qo‘yishi bilan o‘z qadrini ta’kidlab turadi. Zero, bu muammolar ijtimoiy-tuzum o‘zgarsa ham, dunyoqarashlar yangilansa ham o‘zining dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q.

Ma’lumki, badiiy asarning ijtimoiy xossasi muhim ahamiyatga ega. Unda ko‘tarilgan ijtimoiy muammolar asar badiiy qimmatida va hayotiyligida katta rol o‘ynaydi.

Shoir asarda inson, shaxs, ota-ona va farzand, inson va jamiyat, insoniylik va farzandlik burchi kabi masalalarni o‘rtaga tashlaydi. Faqat bu masalalar boshqa asarlardan farqli o‘laroq u dunyoda hal qilinadi.

Doston yigitning u dunyoga safaridan boshlanadi. Yigit bu dunyoda shuncha ko‘p riyo, fisqu fasod va razilliklarning guvohi bo‘lganki, hatto u dunyodagi adolatga ham, hisob-kitobga ham shubha bilan qaraydi.

Mahshar tongi asta-sekin oqarib kelar,  
Ko‘z oldimda sodir bo‘ldi Ulug‘ Qiyomat.  
Necha yuz yil davom etdi bilmam, bu yo‘llar,  
Taroziyon qoshiga ham yetdik nihoyat.  
Taroziyon tushar emish gunoh va savob,  
Qaysi biri ko‘proq ekan peshonamizda?!  
Ne bo‘lsa ham, tarozisi bo‘lmasin nobop.

O‘zga odam

Taroziyon ne desa shu, ishonamiz-da!

Yigit bu dunyodagi hayotini imkon qadar yaxshilik bilan o‘tkazgan, o‘zgalardan yordamini ayamagan, ota-ona hurmatini o‘rniga qo‘ygan, insoniylik va farzand burchini unutmagan, eng muhimi, unda yaratgan tomonidan in’om etilgan

---

<sup>21</sup> Qahhor A. Tanlangan asarlar. 5 jild. T., 1978. B.267

iste'dod bor. Ana shunday ezgu fazilatlar egasining hukmi qanday bo'ladi? Bu asardagi voqealar rivoji davomida oydinlashib boradi.

Asar xronikali sujetda yaratilgan. Asardagi voqealar xronologik izchillikda birin-ketin sodir bo'ladi. Tugun yigitning jannatga kirishiga ikki paysa savob yetmasligi ayon bo'lgan joyda tugilgan. Bundan so'ng voqealar rivoji sari muammolar hal bo'lib boradi. Yigit va Do'stning ikki paysa savobni bir-biriga bermoqchi bo'lgan o'rni asar kulminatsiyasidir. Bu o'rinda do'stlikning naqadar buyuk qudratga ega ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi. G'oyibdan kelgan Sado har ikki do'stga ham jannatning eshiklari ochiq ekanligini ma'lum qilishi asarning yechimidir. Asarda do'stlik ulug'lanadi. Asarning asos mavzusini do'stlik tashkil etsa-da, unga yondosh yana bir necha mavzular ko'tariladi.

Dramatik dostonning boshidayoq ona-ona va farzand muammosi qo'yiladi. O'zbek oilasida ota va onaning qadri beqiyos. Ota va ona hali farzandi tug'ilmasdan unga butun mehr-muhabbatini bag'ishlaydi. Hayotining eng og'ir pallalarida ham faqat farzandini o'ylaydi, unga yaxshi bo'lishini istaydi. Shoir ana shu holatni jannatda ham davom etishini, agar farzandi arosat yoki qiyin holatda bo'lsa, jannat ham tatimasligini ko'rsatish orqali onalarining tengi yo'q mehri, buyuk qalbini ifodalaydi. Farzand shar'iy va insoniylik jihatidan ota-ona oldida burchlidir. Ana shu burch va uni ado etish masalasi ham asarda o'ziga xos ifodasini topgan. Buni asar boshidagi Yigit va O'zga odam dialogidan ham anglashimiz mumkin:

Qaysi kuni yig'lab ketdi bir mo'ysafid chol,

Yetti bora haj savobi bo'lmabdi qabul.

Yigit

Nechuk endi?

O'zga odam

U dunyoda yuz berib qay hol,

Otasini sansiragan ekan bir bor ul.

Ushbu satrlar orqali shoir ota va onaning qadri yuksak ekanligini, otalik maqomi o'zida buyuk hurmat va ehtiromni mujassam etishini e'tirof qiladi. Ota-ona – buyuk zot. Ularni ranjitish og'ir gunoh ekanligi ta'kidlanadi.

Tarozining bir pallasida yetti bora haj savobi, bir pallasida otani bir bor behurmat qilish, sensirashdagi gunoh. Bu oila podshosi – otaning qadr- qimmatini ulug'lanishi emasmi?

“Podshohlar – ollohning soyasi, yerdagi quyosh”, – deya ta'riflanadi mumtoz adabiyot namunalarida. Oila boshlig'i bo'lgan otalarda ham ana shu ilohiy ulug'lik sifati mujassam. Shoir otadagi ana shu ulug'likni, onadagi buyuk mehr bilan yo'g'rilgan qalbni milliylik va umuminsoniylikning tutash manzillarida o'zgacha idrok qiladi.

Ota-ona va farzand munosabati, farzandning mehr tafti asarning boshidan oxiriga qadar sezilib turadi. Shoir Yigit timsolida ota-onasiga cheksiz mehr-muhabbat qo'ygan, ularni doimo e'zozlab kelgan, farzandlik burchini hech vaqt yodidan chiqarmagan inson siymosini gavdalantiradi. Mazkur satrlar zamiriga hadislarning mazmun-mohiyati ham singdirilgan. Bulardan ko'rinib turibdiki, shoir totalitar tuzum e'tiqod erkinligini ta'qiqlagan, din qoralangan vaqtlarda ham diniy, islomiy bilimlarni asar ruhiyatiga singdira olishga jasorat topa bilgan. Shoir ota-ona qadrini ulug'lagan inson ma'nan boy va kuchli bo'lishligini e'tirof etadi. Bunday inson har qanday vaziyatda ham to'g'ri yo'l topa oladi, o'z xatti-harakatini to'g'ri baholay oladi. Bunda ota-ona duosi qo'llamog'i shubhasiz. Asar qahramoni – Yigitning ota-onasi oldidagi farzidan ko'ngli to'q, bu burchni u mukammal uddalagan:

Ming martaba shukr bo'lsin parvardigorga,  
Mendan rozi ketgan ekan qiblagohlarim.  
Es bilmagan go'daklikni yo'ysak bekorga  
Sensiragan emasman men, yo'q gunohlarim.  
Do'stlar bilan kaltaklashgan chog'larim bo'lgan,  
Har xil kufr ishlarim ham ko'pdir, bilmadim.  
Balki mening gunoh xaltam limmo-lim to'lgan,

Lekin ota hurmatini kanda qilmadim.

Yigitga ikki paysa savob yetmay qolganida uning qizni o‘lim yoqasidan qutqarib qolganligi, ota-ona hurmatini joyiga qo‘yganligi, umrini iloji boricha yaxshilik bilan o‘tkazishga harakat qilganligi bois ikki paysa savob topish imkoni beriladi.

Bor, sen hozir arosatning dashtini aylan,  
Mayli, jannat darvozasin qoshiga borgil.  
Ikki paysa savobni sen topishga shaylan,  
Mayli, yig‘la, iltimos qil, mayli, yolborgil!

Biroq yigit chindan-da oliy tabiatli va mard inson. U o‘z rohati yo‘lida yalinib yolborishni, o‘zgalar haqqini o‘ziniki qilishni istamaydi va bu imkoniyatga keskin rad javobini beradi:

Yolbormasman, yig‘lamasman, bu qandayin gap,  
Boshqalardan savob olsam gunohim uchun.  
Mayli, ketay do‘zax sari hech tortmasman tap,  
Mangu azob chekmoqqa ham yetadi kuchim.

Shoir Yigit obrazida vijdonli, har qanday vaziyatni odil baholay oladigan, xatolarini tan olishni ham uddalay oladigan irodali, tanti insonni gavdalantiradi. Inson umrini ana shunday tarzda tashkillashi lozim. Shunda u jamiyat uchun ham, insoniyat uchun ham birdek qadrli bo‘lib qoladi.

Bir lahza avval “boqiy dunyoda ham adolat bormi o‘zi”, – deya taqdiran nolib turgan yigit ota-ona visoliga yetishishi mumkinligidan boshi osmonga yetadi. Buning uchun shukronalar aytib, undan so‘ng do‘zax azoblariga ham rozi ekanligini bildiradi. Badiiy adabiyotda ota-ona hurmati, ularni e‘zozlash xususida juda ko‘p ibratli fikrlar bildirilgan. Jumladan, buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning quyidagi baytlari alohida e‘tiborga loyiq:

Jonni fido qilg‘il, ota qoshiga,  
Jismni qil sadqa ano boshig‘a.  
Har ikkisin aylagali nurposh,  
Birisin oy angla, birisin quyosh.

Ota-onani qadrlash farzdir. Asarda shoir ilgari surgan konsepiyalardan biri – shu. Ana shu farzni boshiga toj qilib, hech qachon yodidan chiqarmagan Yigitning ruhiy olami asarda yorqin aks etadi:

Oh, falakning yulduzlari chaqnang tobora,  
Farishtalar baxtlimassiz men kabi alhol.  
Men do‘zaxda yonay, mayli, lekin bir bora  
Men ularni ko‘rajakman, bu nechuk visol?!

Hissiy to‘yintirilgan ushbu satrlar “Jannat onalar ayog‘i ostindadur” degan mashhur hadisni yodga soladi. Shoir ota-ona visolidan mamnun farzandning baxti farishtalarnikidan ham ortiq ekanligini e‘tirof etish orqali ularning tirikligidagi diydor g‘animatligini, bahosiz ekanligini ham ta‘kidlagandek. Bu satrlar har bir o‘quvchini o‘z ota-onasiga munosabatini yana bir bor aql tarozusiga solib ko‘rishga, ota-ona va farzand o‘rtasidagi mehr rishtalarini mustahkamlashga undaydi. Ota-onasini qadrlagan inson esa o‘zgalarning ham qadriga yetadi. Bu bilan shoir berilgan imkoniyat– umr davomida insonlar bir-birini qadrlab, e‘zozlab yashashlari lozimligini ta‘kidlaydi.

Olijanob Yigit berilgan imkoniyatdan ikki paysa savob olish niyatida emas, balki “visol lazzati” dan rohatlanish istagida foydalanadi. Ya‘ni “diydor aziz”. Ota-onaning bir lahzalik diydori nafaqat dunyolar bilan, hatto jannat rohatlaridan-da yuqori baholanadi.

Rahmat senga, xolis hilqat, oliyhimmat zot,  
Sendaylarni yaratibdi– tangriga shukur.  
Mening uchun bu yo‘rig‘ing – oliy mukofot  
Ota-onam visolini ko‘rayin bir qur.  
Lekin bilgil, men ularga arz etib beshak,  
Savob so‘rab yig‘lamasman, kechirsin xudo.  
O‘zlariga yetmas balki, menga vasl kerak.  
Balki qayta ko‘rishmasmiz, xayr, alvido.

Asarda Yigit va Ota uchrashuvi epizodida ota va o‘g‘ilning samimiy suhbatini, dardlashuvi aks etadi. Yigit o‘z holini “Olib qo‘ygan ko‘rinadi joyimni birov. Bu

dunyo ham olg'irlarga boqar ekanda", – deya bolalarga xos bayon qilar ekan, ota uni vazminlik bilan tushunishga, muammosiga yechim topishga urinadi. Asarda tabib (ota) va shoir (o`g`il) faoliyati, qismati qiyoslanadi. Biri insonlarning jismoniy salomatligi uchun javobgar bo`lsa, ikkinchisi, ularning ruhiy salomatligi oldida javobgarligi ta`kidlanib, shoirlik qismati va mas`uliyati obrazli talqin etilgan:

Siz qanchalar qayg'urgansiz ular o'lganda,  
Sog'ayganda bo'lardingiz xursand beqiyos.  
Vazifamga ko'ra men ham tabibroq edim,  
Insonlarning ruhlariga edim javobgar.  
Ruhi majruh insonlarni ko'rsam, ne qildim,  
O'z tinchimni o'ylab nari qochganman battar.  
Ular esa bamisoli quturgan itday  
Ruhimizga solar edi g'ulu, qatag'on  
Ojizlarni talar edi bijg'igan bitday,  
Bir pul bo'lib qolar edi nomus, or, vijdon.  
Ojiz qolgan bechoralar aylanib boshi  
Sizdan dori so'rar ekan endi o'ylasam.  
Barisiga men kabilar aybdor rosti.

Bu satrlar nafaqat Yigit, balki muallif va ular qatori barcha shoirlar oldidagi katta mas'uliyatni yodga soladi. Shoirlar millatning vijdonidir. Ular shu jamiyatda yashar ekan, xalq dardi bilan yonmog'i, uning dardiga darmon bo'lmog'i lozim. Shoir hayotni ana shu tamoyil asosida qurishni ma'qul ko'radi.

Yigit onasini behad sevadi va uni ardoqlaydi, asrab-avaylaydi. Shuning uchun jannatga, onasining oldiga kirganida ham butun vujudi o't bo'lib, talpinib tursa-da, onasiga o'zini tanitmaydi. Ona bilan suhbatda ona mehri, ona uchun yomon farzandning bo'lmasligi, urush va qatag'onlar sabab onalarning chekkan iztiroblari yoritiladi. Va Yigitning "bu dunyoning doim biri kam, Orzu bilan yashab o'tar odamzod faqat" so'zlarining eslanishi orqali shoir taniqli yozuvchi Ernest Hemingueyning "Chol va dengiz" asarida ilgari surilgan g'oya singari "*inson*



*hayotda hamisha orzu va buyuk maqsadlar bilan yashashi kerak*”, degan konsepsiyani ilgari suradi.

Suhbatda Yigitning yana bir orzusi Ona tomonidan xotirlanadiki, bu muallifning ham orzusi bo‘lganligi shubhasiz. Bunday tasvirlar o‘zida katta falsafiy mushohada jamlagani bilan xarakterlidir:

Esimda bor, erkalanib degandi bir gal:

“Har bir zotga yodgorlik bor, men bo‘lsam ammo

Qo‘yar edim “Yaxshi odam” nomli bir haykal.

Sabab shulkim, yaxshi odam azizdir, noyob,

Sayyoralar to‘pi ichra quyosh misoli”.

Shoir bu satrlarda “quyosh barchaga nurlarini birdek armug‘on etgani singari yaxshilar ham mehrini birdek ulashadi. Ularni qadrlaylik, e‘zozlaylik” degan chorlovini singdirgan. Ya‘ni shoir olamni nafaqat go‘zallik, balki mehr qutqaradi, yaxshilik qutqaradi, degan fikrlarni ilgari suradi.

Suhbat davomida Yigit o‘zining kimligini oshkor qilmasa-da, uni kuzatib kelgan Hur qiz so‘zidan Ona o‘z farzandini tanib qoladi. Biroq bu paytda Yigit jannatni tark etib bo‘lgan edi. Onaning “jannati shu bilan abas topadi”. Axir farzandning rohatiziz onalarga jannat ham tatiydimi?

Ota-ona uchun farzand hamisha farzand bo‘lib qolaveradi. Shoir farzand uchun ham ota-onaning hamisha ota-ona bo‘lib qolishini istaydi. Har qanday vaziyatda ham farzand ota-onasidan o‘z mehr chashmasini darig‘ tutmasligini xohlaydi. Zero, insonni boshqa mavjudotlardan ajratib turadigan xususiyatlaridan biri ham shunda. Biroq bugungi globallashuv davrida, turli axborot hurujlari kuchaygan bir paytda har xil yot g‘oyalar asiriga aylanib qolayotgan ba‘zi bir insonlarning “ota-onam mening dunyoga kelishimda bir vositachi xolos”, degan so‘zlarini qanday baholash mumkin. Bu manqurtlikdan boshqa narsa emas. “Jannatga yo‘l” dramatik dostonida ko‘tarilgan muammolar ana shu jihati bilan ham bugungi kunda yana-da, dolzarblik kasb etadi.

Asarda do‘stlik ulug‘lanadi. Yigitga jannat tomon kirish eshiklarini ochib bergan ham do‘stlikdir. Yigit va Do‘st suhbatida ham inson va jamiyat

muammosiga oid talay masalalar yoritiladi. Avvalo Yigit va Do'stga yetmay qolgan ikki paysa savobning sababi oydinlashadi:

Yigit

Gunohimmi? Odamzodga ortiq ishonmoq!

Shu boisdan ikki paysa yetmadi sabil.

Do'st

Ha, o'ylashga majbur etar sening bul so'zing,

Ishonchsizlik bo'ldi mening boshimga yetgan!

Biri ishonch tufayli aldangan, ikkinchisi ishonchsizlik tufayli yolg'izlikka mahkum ikki do'st jannat qopqasi oldida bir-biriga o'z savobidan ikki paysasini taqdim etadi:

Yigit

Rad etma zinhor.

Hozir ikkov kirib borsak, deylik, masalan,

To'larmidi jahannamning cheksiz maskani?

Do'stlik haqqi iltimosim eshit qat'iyani:

Olgin mendan yetmagan shul ikki paysani!

Do'st

Nima? Nima? Esing butmi? Senga ne bo'ldi?

Eshitmadim gapingni men! Qaytib ol darhol!

...Kimmanki men, o'z do'stimdan olsamu savob,

Yolg'iz o'zim ketaversam o'sha jannatga.

Bu do'stlik, bu mehr, bu fidoiylik ikki do'stning bu dunyodagi bir-birini qo'llab-quvvatlashi, ruhiy-ma'naviy ko'magi sirasiga yana bir tomchi bo'lib qo'shiladiki, natijada har ikki do'st uchun ham jannat eshiklari ochiladi.

Sado

Volidayu padarlarga qulluq va rahmat!

Tashakkurlar bo'lsin nurli Inson zotiga.

Fikringizni lekin buyon buring bir fursat.

Zehn soling gapning asl tafsilotiga:

Ikki do'stning sadoqati, mehri, himmati  
Koinotning qadridan ham turgaydir baland.  
Har ne bilan o'lchanmaydi do'stlik qimmatini,  
Qulatgay u sarhadlarni qudrati bilan.  
Hikoyatdan murod shulkim, ulug', muhtaram  
Do'sti sodiq nasib etsin har kimga, har on.  
Jannat ato qilajakman ikkingizga ham!  
Jannat yo'li mana, Sizga ochiq, charog'on.

Asarda do'stlik ulug'lanadi. Chin do'stlik har nega qodirligi, uning qudrati hatto jannat darvozalarini ham ocha olishi asarning g'oyaviy asosini tashkil etadi. Muallif "jamiyatda inson bir-biri bilan do'st bo'lib yashashi lozim, do'stlik bu—katta kuch-qudrat va baxt", degan g'oyani ilgari suradi.

Ma'lum tarixiy sharoitda tamaddunlarning uzoq umr kechirishi yoki aksincha yer yuzidan tag tubi bilan yo'qolib ketishi o'sha mavjud tarixiy jamiyatning ma'naviy-axloqiy iqlimiga bog'liqdir. Negaki, faoliyati poraxo'rlik, yolg'on va yolg'onchilik, riyo va olchoqlik, hasad, loqaydlik zaminiga qurilgan jamiyatning tarixiy umri ayanchlidir. Qadim-qadimdan kelayotgan bu xulosa shoirmi tashvishga soladi.

Shoir moddiy manfaatdorlik oldida ijtimoiy burchga xiyonat manzarasini butun ildizlari bilan ochadi.

Do'st  
Nimasiga ishonding sen odam bolasin,  
Ayt-chi uning qay xislati seni etdi rom?  
Yig'lab turib, seva turib, deyman, tingla sen,  
Ishonmadim insonga men tamom, vassalom!  
Osmondagi yulduzlarni mumkin sanamoq  
Ammo inson fe'l-atvorin bormi poyoni.  
Senga doim nima derdim, eslagin o'rtoq:  
Xayol bilan bezab bo'lmas aslo dunyoni!  
Esingdami, qutqazganding meni ig'vodan,

Yig'ishtirib olmasimdan hali hushimni,

Mahkamaning kotibasi to'sib daf'atan

Tilab oldi og'zimdagi tilla tishimni.

Ig'vo, nayrang, hasad g'iybat – bular barisi

Oh, azizim, ocholmadi ko'zingni nahot?!

Senga vafo qildimi, xo'sh, ilhom parisi,

Jannat ato qildimi yo "go'zal" koinot?!

Hatto vazifasi huquqni himoya qilish va tartib o'rnatish bo'lgan mahkama xodimlarining o'z vazifalarini suiste'mol qilishi, insoniylikni unutib, ig'voyu hasadga qo'l bergan, g'iybatni do'st tutgan insonlarning tubanlashuvi asarda katta dard bilan bayon qilinadi. Yigitning jamiyat haqidagi iztirobli o'ylarida, tortgan ohlarida, insonning murakkab olami xususidagi munozaralarida muhim falsafiy fikrlar aks etadi. Shoir ruhan poklanish, ma'nan yuksalish, chirkin illatlardan holi jamiyatni ko'rish orzusini dramatik dostonning butun mazmun mohiyatiga singdirib yuborgan.

Asarda davlat va xalq, jamiyat oldidagi burchning, shukronalik tuyg'usining unutilishi mamlakat va tamaddunning tanazzulga yuz tutishiga, jamiyatning axloqsizlanishiga olib kelishi mumkinligi o'ziga xos tasvirlanadi.

Qaysi kuni bir noshukur do'zaxga ketdi,

Men o'zim ham bir musht urdim rostin aytganda.

Qurib ketgan, suyagiga yopishgan eti,

Qalbi to'la hasad ekan, noshukur banda.

Qancha-qancha begunohning boshiga yetgan,

Hatto bola-chaqasiga urmish gunohi.

Kim bilsin u do'zaxga ham chap berib ketgan,

Ha, bolakay, keng ekan-da, xudo dargohi.

Razil illatlar uchun hatto do'zax azoblari ham kam. Ular adolat tarozibonlari, hatto yaratganni ham aldashga urinadilar va bu bilan o'z tubanliklarini namoyon etadilar.

Shoir asarida jamiyatdagi turli qusurlarni, chirkin illatlarni qalamga olar ekan, ularni yuragida ogʻriq bilan dard bilan tasvirlaydi. Muallif munosabati aks etgan tasvirlar Yigit nutqida yaqqol seziladi. Ular shoirning oʻz soʻzi boʻlib yangraydi:

Men doʻzaxdan ming martaba dahshatli boʻlgan

Hodisalar va kunlarni koʻrganman avval.

Men shaytondan ming martaba vahshatli boʻlgan

Olchoqlarni koʻrib, chidab turganman avval.

Lekin ayting qayoqda u oliy haqiqat?

Ketayotib faqat shuni bilmoq istayman.

Dramatik dostonning toʻrtinchi koʻrinishi jamiyatdagi illatlarni keskin fosh qilishga qaratilganligi bilan alohida ahamiyatga ega. Doʻzax darvozasi oldida Oʻspirin va Qariyaning bir-biriga “talantliman”, deya daʼvo qilishi va yoshiga munosib boʻlmagan, axloq meʼyorlariga toʻgʻri kelmaydigan holda bir-birini boʻgʻa boshlashi, bir-birini tahqirlashi katta falsafiy maʼnoga ega. Birinchi maʼnosi isteʼdodli va isteʼdodsiz insonning hasad bois tortishuvi boʻlsa, ikkinchi maʼnosi oʻtmish va bugunning totalitar tuzum davridagi oʻzaro munosabati masalasidir. Majoziylik asosiga qurilgan ushbu epizodda tarix va bugun, oʻtmish va kelajak masalasi oʻzgacha talqin etiladi:

### **Qariya**

Kuni boʻyi takrorladim yetmasmi, boʻtam,

Yolvoraman, biroz tinch qoʻy, shafqat aylagin.

Xudodan qoʻrq, chol kishini qiynama koʻpam.

### **Oʻspirin**

Bilasan-ku, azaliydir bizning bu janjal,

Bir tomondan vakil sensan, bir tomondan men.

Hozir seni boʻgʻajakman, chunki menda gal,

Navbat yetgach, hunaringni koʻrsatgaysan sen.

Talantliman!

Shoir tarixni qoralash, unga behurmatlikni insoniylik va mentalitetimizga toʻgʻri kelmaydigan holatlar tasvirida real ifodalaydi. Oʻspirinning cholni

bo'g'ishi, unga "sen" deya murojaat qilishi, o'z navbatida qariyaning o'spirin bilan tengma-teng olishuvi juda xunuk va achinarli. Shoir bunday tasvirlar orqali mazkur illatlarga cheksiz nafratni ifodalaydi va "Yo alhazar! Shuncha xormi inson degan nom", – deya hitob qiladi.

Asardagi yana bir muhim ijtimoiy-falsafiy masala bu savob va gunohdir. Umrini yaxshilik bilan o'tkazishga uringan Yigitning jannatga kirishiga nechun ikki paysa savob yetmay qoldi? Axir u hasaddan yiroq, ta'mayu yomonliklardan hazar qilar ediku? Umri ham bir cho'kib ketayotgan qizni o'limdan qutqarish bilan yakun topdiku? Bularning mukofoti qani? Ana shunday o'y har bir kitobxonni o'ylantiradi. Shoir buni juda nuqtadonlik bilan tushuntirib beradi:

Shunaqa de? Ammo, lekin yetmas bu hali,  
Ba'zi ishlar bo'ladiki tasodif, xolos.  
Savob degan narsa axir tasodif emas,  
Yetmish ikki tomirdan u oqib kelgusi,  
Yaxshi odam yaxshiligini anglamay qolmas,  
U vijdonni bir vazifa deya bilgusi.

Demak, savob qilish orzusi yetmish ikki tomirdan oqib kelishi zarur. Inson savobni ortidan quvib yurib, diliga tugib amalga oshirishi lozim. Yuragi ezgu ish qilish, savob olish yodi bilan band bo'lgan insonni esa yomonlik yaqiniga ham yo'lay olmaydi. Chunki uning fikru yodi, turish-turmushi ezgulik nuri bilan to'lug' bo'ladi. Asardagi bu g'oya birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning "Savob ishni har kim, har kuni qilishi kerak", degan fikrlariga hamohangdir.

Qizning qutqaruvi tasodif xolos. Tasodif tufayli sodir bo'lgan yaxshilik bahor havosi yanglig'. U ba'zan quyoshga, ba'zan soya, bulutga o'rtoq. Demak, tasodif tufayli sodir bo'lgan savobning ham qimmatini shunga yarasha. Shoir bu talqin orqali insonning butun tabiati, dunyosi, o'y xayollari faqat ezgulik bilan to'lug' bo'lishini, yuragi savob dardi bilan yonishini istaydi. Shunda nafaqat yomon ish, balki yomon o'yga- da o'rin qolmasdi.

Asarda arosat borasida ham o'ziga xos qarash aks etadi. "Gapni cho'zma, arosatga borasan, chunki, Sen na gunoh kilgansanu, na zarra savob". O'zga

insonga nisbatan yangragan bu hukm kitobxonni ham hushyorlikka chorlaydi. Demak, gunoh qilmadim deb savobga ham qo‘l urmay umr o‘tkazish bu arosat dashtida sarsonlikdir. Insonning insoniylik vazifasi yomonliklardan tiyilishgina emas, unga qarshi kurash; odam va olamga yaxshilik qilish, o‘zidan ezgulik va yaxshi nom qoldirishdir. Shoir ana shu g‘oyani ilgari suradi. Na gunoh, na savob qilgan inson bu hech narsa bitilmagan qog‘ozdir. Uning ma‘nisi yo‘q, mohiyati yo‘q. Inson o‘zidan iz qoldirsagina, hayoti uvol ketmaydi. Aksincha esa Yaratgan bergan umrning uvoli tutishi shubhasiz.

“Jannatga yo‘l” dramatik dostoni shoir Abdulla Oripovning ulkan adabiy mahoratidan darak beradi. Shoir yaratgan bu asar mangulikka dahldorligi bilan xarakterlidir. Chunki unda har qaysi davr uchun ham dolzarbligini yo‘qotmaydigan abadiy mavzular qalamga olinadi. Shunday abadiy mavzulardan yana biri shoir va shoir qismati masalasidir. Bu mavzu ko‘plab ijodkorlar ijodida o‘ziga xos ifodasini topgan. Jumladan, Erkin Vohidovning “Ruhlar isyoni” dostonida Nazrul Islom taqdiri bilan bog‘liq talqinlarda shoir ijod ahlining tabiati, uning qismati masalasini yorqin bo‘yoqlarda ta‘sirli aks ettirib beradi. Bu borada har ikki shoirning fikrlari uyg‘un:

Shoir bo‘lsang, bo‘lsa qalbing elga qurbon bo‘lgudek,

Shoir bo‘lsang, bo‘lsa xalqing senga qalqon bo‘lgudek.

Shoir bo‘lsang, qalamingni nayza qilib tutolsang,

Yurakdagi alaminni oq qog‘ozga to‘kolsang.

Shoir bo‘lsang, seni xalqing qalbi bilan tinglasa,

Yod olmasa hamki she‘ring fidoliging ahglasa.

“Jannatga yo‘l” dramatik dostonining bosh qahramoni Yigit ham – shoir. Uning jannatga noyil ko‘rilmasligining sababi ham ana shu shoirligi bilan bog‘liq. Oddiy insonlardan farqli ravishda Olloh unga iste‘dod, shoirlik qismatini ato etdi. Biroq bu degani faqat go‘zalligu baxtni kuylash emas, el dardini kuylash, uning dardiga malham bo‘lish, jamiyatdagi illatlarga qarshi kurash imkoniyati edi. Lekin Yigit buning mohiyatni to‘la anglab yetmadi. Ya‘ni Yigitga buyuk qudrat So‘zni bo‘ysundirish qudrati in‘om etilgan edi. U

ana shu in'omning imkoniyatini to'la ochib bera olmadi. Bu bilan shoir butun qalam ahli oldidagi g'oyat mas'uliyatli vazifaga e'tibor qaratadi. Ya'ni shoirlik qismatidagi bosh vazifa el dardini kuylash, unga darmon bo'lish ekanligini alohida ta'kidlaydi. So'zdagi ilohiy qudratni bo'ysundirishdek salohiyatga ega shoirlar so'zning qudratini adolat va halollik, tinchlik va ezgulik yo'lidagi kurashda ko'rsatishlarini istaydi.

Jamiyatdagi illatlarni ko'rib ko'rmaslikka olish yoki unga loqaydlik esa katta gunoh. Ijodkor uchun uning ajrimi ikki hissadir. Chunki "egam ularni siylab pari qavmiga kiritmish". "Farishtalar til farqlamas, millat ham azal". Shuning uchun ular butun yer yuzida adolat va tinchlik, xalollik va ro'shnolik hukm surishi uchun, butun insoniyat baxti uchun qayg'uradilar. Shoirlardan ham talab etiladigan narsa shu.

Shoirlar — millatning vijdoni. Ular jamiyatdagi adolat va xalollik uchun kurashuvchilardir. Shoirlar "qalamini nayza kabi tutib" jamiyatning musaffoligi yo'lida fidoiy va jonkuyar bo'lmoqlari lozim. Abdulla Oripov shoir va shoirlik qismati haqidagi bu satrlari bilan, aytish mumkinki, shoirlarning hayot konsepsiyasini ishlab chiqadi. Ijodkorlarni ana shu mas'uliyat tufayli ham xalq shoiri Muhammad Yusuf "Shoirlar xudoning erkatoylaridir", deb ta'riflagan bo'lsa ajab emas. Chunki ularning zimmasidagi yumush ham g'oyat og'ir, ham g'oyat sharaflidir.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Abdulla Oripovning "Jannatga yo'l" dramatik dostoni abadiy va dolzarb muammoni o'zida aks ettirgani bilan ahamiyatlidir. Asardagi badiiy voqealikda u dunyodagi hayot tasvirlansa-da, bu dunyoga oid muammolar bayon qilinadi. Unda inson va hayot, inson va jamiyat, burch va mas'uliyat, ota-ona va farzand munosabatlari, shoirlik qismati, umr mazmuni kabi masalalar milliy va umuminsoniy tamoyillar asosida o'zining go'zal ifodasini topgan. Doston nafaqat o'zbek adabiyot balki jahon adabiyotda ham o'ziga xos e'tirofqa ega durdona asardir.



## OMON MUXTOR ROMANLARIDA NAVOIY TIMSOLI

“Ijod – insonning cheksiz koinot ichra o‘z ismini, o‘rnini, qadr-qimmatini anglashga intilishi, isyoni”<sup>22</sup>. Bu intilish, bu isyon o‘z nomi bilan hayot va harakatlar ummonida dolg‘ali kechadi. Mohiyatiga ko‘ra insonshunoslik bo‘lgan badiiy adabiyotda oddiy insondan farqli o‘laroq yuragida adabiy kurash panoh topgan, o‘ziga xos tabiati, dunyosi bor ijodkor shaxsni kashf etish esa qiziq va xarakterlidir.

“Ijod qilish qobiliyati tabiatning buyuk ehsonidir, san’atkor ruhidagi ijodiy jarayon buyuk siru asrordir”<sup>23</sup>. Ayni xususiyatiga ko‘ra yozuvchi g‘oyaviy-badiiy niyatining ifodasida san’atkorning asosiy qahramon qilib saylanishi asarga o‘zgacha xususiyat beradi. Ijodkor shaxs murakkab tabiati, ruhiy-ma’naviy olami, borliqni o‘zgacha idrok etishi kabilarda boshqalardan ajralib turadi.

Obrazlar galareyasida turfa xil obrazlar bo‘lib, asar kompozitsiyasi, g‘oyasi va syujet liniyasida tutgan o‘rni, mavqeiga ko‘ra farqlanadi. Hoh asosiy qahramon bo‘lsin, xoh epizodik obraz asarda ijodkor shaxs timsolini yaratish alohida mas’uliyat yuklash barobarida, asarga o‘zgacha ruh bag‘ishlaydi.

Ijodkor shaxs obrazi talqini folklor, antik adabiyot namunalari, qadimgi adabiy meroslardan ko‘ra asosan yozma adabiyotda uchraydi. Sababi, folklorning epik va liro-epik tur namunalarida asosan qahramonlik mavzusi tarannum etilgan bo‘lib, ijodkor shaxslardagi indiviuallik jihatlari boshqarish, o‘z ortidan ergashtirish sifatlarini inkor etadi. Kamdan kam hollarda Z.M.Bobur faoliyatidagidek ijodkorlik va boshqarish qobiliyati mutanosibligi kuzatiladi.

Ijodkor shaxslar obrazini *tarixiy ijodkorlar va to‘qima obraz*(ijodkor) tarzida tasniflash mumkin. Tarixiy ijodkor obrazlarda tarixiy haqiqat va biografik ma’lumot masalasi o‘rtaga tushsa, badiiy to‘qimada ijodkor “men”i, badiiy-konseptual yondashuv kabi jihatlar yetakchilik qiladi. Ushbu sifatlar nasriy, she’riy, dramatik asarlarda adabiy tur xususiyatlariga ko‘ra o‘ziga xos namoyon bo‘ladi.

---

<sup>22</sup> Назар Эшонкул. Мендан “мен”гача. Т., “Академнашр”, 2014. Б. 20.

<sup>23</sup> Назар Эшонкул. Мендан “мен”гача. Т., “Академнашр”, 2014. Б. 73.

O‘zbek va jahon adabiyoti namunalarida ijodkor shaxs obrazi talqin etilgan asarlar talaygina. Undagi obrazlar tarixiy yoki badiiy to‘qima, asosiy qahramon yoki epizodik obraz ekanligi, eng asosiysi hayot falsafasini turlicha idrok etishi bilan farqlansa-da, yaratuvchanlik, kurashuvchanlik, isyonkor tuyg‘ular, murakkab taqdirlilik, ruhan poklanish – katarsis sari yetaklashi kabi jihatlari bilan mushtaraklik kasb etadi.

Ijodkor shaxs obrazini talqin etishda yozuvchi Omon Muxtor ijodi yangicha tasvir usullarini kashf eta olganligi bilan ahamiyatlidir. U yaratgan Navoiy timsoli boshqa ijodkorlar yaratgan timsollardan tubdan farq qiladi. Yozuvchining O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan “Navoiy va rassom Abulxayr” roman-dilogiyasi “Ishq ahli” va “Buyuk farrosh” nomli ikkita kitobdan iborat. Professor Y.Solijonov bu asarni “Oybekdan keyin ulug‘ Alisher Navoiyning monumental qiyofasini yaratish yo‘lidagi buyuk jasoratdir”<sup>24</sup>, – deya baholaydi.

Darhaqiqat, asarda tarixiy shaxs siymosi o‘zgacha yo‘nalishda talqin etiladi. Oybekning “Navoiy” romanida Navoiy siyosiy arbob, bunyodkor shaxs, INSON sifatida voqeliklar silsilasida talqin etilsa, Omon Muxtor Navoiyning ijodkor sifatidagi siymosini, murakkab ruhiy-ma’naviy olamini ijodiy asarlari asosida ochib berishga e’tibor qaratadi. Ya’ni uning ijodiy olami, BUYUK INSON sifatidagi fazilatlarini hayrat va havas bilan kashf etadi. Qisqasi, asarda ijtimoiy voqelikdan kelib chiqib, ijodkor shaxs o‘zligini kashf etish emas, ijodkorning asarlari, undagi g‘oyalar orqali Navoiyni anglash tamoyili sari boriladi.

Asar alohida syujet liniyasiga ega emas. Asardagi obrazlar ham sanoqli. Voqelikning sodir bo‘lish o‘rni ham nasriy asarlar, xususan, realistik asarlar xususiyatlariga zid nisbiy. Romanda nasriy va lirik asar xususiyatlari uyg‘unlashib ketgan. Asar roviy bayoniga asoslangan bo‘lsa-da, lirik kechinma bilan sug‘orilgan o‘rinlar bisyor. Bayonda tarix - Navoiy zamoni voqeliklari bilan bugungi kun nafasi qorishib ketgan.

---

<sup>24</sup> Солижонов Й. Мўъжизалар сеҳри. Т., “Адиб”, 2013. Б.54

Rassom Abluxayr ham ijodkor. U ijod ahlidan bo'lgan Navoiy siymosini yaratmoqchi. Ammo Navoiy suratini yaratmoq avvalida o'zi uchun Navoiyni kashf etishi kerak. U tarixiy fakt-ma'lumotlarga tayanib emas, Navoiy asarlaridagi g'oya va hissiy kechinmalar asosida Navoiyni anglash yo'lidan boradi. Asarning bayon uslubi ham shunga xos hislar singari betizgin. Abulxayr bir Navoiy lirikasidagi obrazlar qiyosiga, goh afsona va rivoyatlar bilan yo'g'rilgan ma'lumotlarga, goh tarixiy faktlarga murojaat qiladi, bugunning voqeliklari, mushohadasi bilan sintez qiladi.

Asarda asosiy qahramon qiyofasini mukammal yaratishda, tuyg'ular taftini aniq berishda epistolyar uslubdan samarali foydalaniladi. Maktublar 4 ta bo'lib, Odilning Barnoga(Orzu, Hayrat, Armon) 3ta maktubi, Odilning Xolidga maktublaridan iborat. Birinchi roman kompozitsiyasi Abulxayrning 5 ta daftardagi bitiklari va maktublardan iborat. 2-kitob "Yozuq" va "Tufroq" deb nomlanuvchi boblardan iborat bo'lib, rassomning esdaliklari tarzida bitilgan. Bu ramziy ma'noda taqdir, tug'ilish va umrni yashab, yana O'ZIGA qaytishdir.

Asarda Abulxayr – Shaxriya, Odil va Barno, Suhrob va Nazmi, Hayit va Tozagul, Xolid va Karomat kabi bugunning kishilari, Husayn Boyqaro, Sharafiddin Ali Yazdiy, Abusaid, Hadicha, Badiuzzamon kabi tarixiy shaxs obrazlari tizimiga parallel yaratiladi. Har ikki liniyadagi obrazlarni birlashtiruvchi timsol Navoiydir. Asar g'oyalarini birlashtiruvchi asosiy g'oya ham Navoiyni anglamoq, u orqali o'zlikni anglamoqdir. Mazkur g'oya Navoiy va Abulxayr birligida namoyon bo'ladi.

Asar bayoni ichki monolog – rassomning o'z-o'ziga so'zlaganlari, o'y tafakkurida kechgan va kechayotgan tuyg'ular sifatida tuzilgan. Zero, Navoiy "U – bir Osmon, u – bir ummon, Qamrash qiyin!" Bu qamrash, qiyinlik bayon uslubidan ham yaqqol aks etib turadi. "Odatda, har qanday odamni( buyuk insonni ham!) rassom o'z darajasida chizadi." Rassom katta jasorat – Navoiyni qiyofasini yaratishdan avval o'zi ma'lum darajada unga qarab ko'tarilishi lozimligini his etadi. Bir oz bo'lsa-da, bu vazifaga munosib bo'lishga o'ziga ichki bir mas'uliyat sezadi. Bu ijodkorlarga xos o'zidan qoniqmaslik hissidir.

Asarda ijodkor shaxs kamolotining tadriji Abulxayrga berilgan tavsifda yaqqol namoyon bo‘ladi. “Abulxayr bir paytlar eski shahar ko‘chalari, kungurali devorlari, *halqali eshiklarini* chizib yurgan. O‘shanda ba‘zan *tabiat manzaralariga* ham murojaat qilgan. Keyinchalik *insonga* yuz borgan. Har xil kishilar rasmini(portretini) ishlashga qiziqqan. Bular orasida bir necha *o‘z qiyofasi* tasviri (avtoportret) ham uchraydi. *Dunyomi, o‘zi ustidanmi kulib turgan tasvir* unga ancha shuhrat keltirgan”.<sup>25</sup>

Eshik – yangi manzil, sir-sinoat sari yo‘l, ijodkorning izlanish bosqichi. Halqa eshikni ochishga ko‘maklashuvchi vosita, shuningdek, taraddud va ijozat ma’nosini ham beradi. Ijod yo‘li boshida turgan ijodkorning ruhiy holatiga monand tasvir. Keyin tabiat, borliq, olamni hayrat nigohi ila kashf etish. Undan so‘ng insonni anglashga intilish bu – o‘zlikni anglash sari tashlagan munosib qadam. O‘zlikni anglashga yetishgan inson uchun esa “dunyomi, o‘zi ustidan kulib turib” bildirilgan munosabat tanish tasvir. Bunday holat Navoiy asarlarida ko‘p bor uchraydi.

“Alisherning “loy”i osoyishta ko‘rkam yashab ketadigan “tuproq”dan olinmagan. Uning manglayiga DAHO bo‘lishi uchun avvaldan fojia muhri bosilgan!” Abulxayr asar davomida ana shu daholik sifatlarini anglashga, Navoiyning butun hayoti va ijodida unga xos tashqi osoyishtalik va ichki ziddiyat sabablarini, fojia muhrining ildizlarini izlashga urinadi.

Dilogiyaning “Buyuk farrosh” qismi yana bir o‘zgacha usulda yozilgan. Unda o‘rni bilan rassom Abulxayrning Shaxriyaga maktub sifatidagi murojaatiga o‘rin beriladi. Esdalik tariqasida bitilgan izhorlarda rassom va Navoiyning tuyg‘ulari qorishib ketgandek. Abulxayr o‘z hayot yo‘lini, olam anglamini shu asosda tahlil qiladi. Dilogiyaning 1- kitobi Navoiyni anglash sari tashlangan qadam, 2-kitob Navoiyni anglash, uning nigohida olamni idrok etish bosqichi, inson qalbi, ruhiy dunyosidagi evrilish hosiladir.

Asarda Navoiy “Xalq g‘amidin g‘ami” yo‘q Hizr, bir umrlik sodiq do‘st, BUYUK MUHABBAT egasi, so‘zga e’tiqod qo‘ygan buyuk iste’dod sohibi,

---

<sup>25</sup> Мухтор Омон. Навоий ва рассом Абулхайр. Т., Шарқ, 2006. Б.6.

hayotini komillik asosida o'tkazgan avliyo, tabiatini hatto o'zi ham anglashga qiynalgan, o'zlikni anglashga umidvor kashshof, nafaqat o'z davrining, balki bugunning ham tinchlik elchisi, birdamlik sari chorlovchisi, olamni anglashga intilgan mutafakkir sifatida kashf etiladi. "Navoiyning hayotidagi butun ZIDDIYATlar- Buyuk BIR MAQSADGA INTILISHDIR". Bu yo'lda "uning ruhi- Qaqnus. Jismi -Zanjirband Sher" edi. Jismi fidoiylilik tufrog'idan yaralgan Alloma asrlar osha jasorat timsoli sifatida insoniyatga hayot va o'zlikni anglashdan saboq berib kelmoqdaki, yozuvchi ayni sifatlarini mohirlik bilan ifodalay olgan. Asar Omon Muxtorning Abulxayr misolida Navoiy va uning olamini anglash yo'lidagi o'zgacha va muvaffaqiyatli qadamidir.

### **ULUG'BEK HAMDAMNING "UZOQDAGI DILNURA" HIKOYASIDA "OJIZ" ODAM OBRAZI**

Adabiyot nazariyasida tragik qahramonning asosiy farqli jihatlari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi: "Tragik qahramon qarshisida erkin tanlov mavjud: u maqsaddan voz kechishi, oson yo'lni tanlashi mumkin, biroq u bunday qilmaydi, o'zining jisman yoki ma'nan halokatga uchrashi mumkinligini bilgani holda ham maqsadidan, e'tiqodidan qaytmaydi. Xuddi shu asosda tragik qahramonning xarakter kuchi, uning favqulodda shaxsligi namoyon bo'ladi" Demak, asosiy qahramon murakkab tabiatli, ijobiy fazilatlar sohibi yoki salbiy illatlar egasi bo'lishidan qat'iy nazar uning hal qiluvchi palladagi odilona qarori asl "men"ini ko'rsatadi. Bu tragediya bosh qahramonining asosiy xos xususiyatlaridan biridir. Ayni shu jihatiga ko'ra antik adabiyot vakillari tragediya oliy janr va uning qahramoni oliy tabiatli shaxs bo'lishi kerak, deya e'tirof etgan. Biroq bunday kuchli iroda har kimda ham uchrayvermaydi. Irodasi zaif insonlarni esa ojizlik sifatleri mahv etadi.

Hadislarda "Kimki o'z nafsini yengsa, ana shu inson kuchlidir", deyiladi. Ya'ni insonning kuch-irodasi bilaklardagi kuchi, qo'lidagi davlati, jamiyatdagi lavozimi bilan belgilanmaydi. O'z ichki "men"idagi illatlar, shaytoniy hoyu

havaslarini yengishda ko‘rinadi. Agar u bu ishni uddalay olmasa, har qanday darajayu mavqeidan qat’iy nazar u ojizdir.

Badiiy adabiyotda shunday ojiz insonlar qismati talqini talaygina va ularning taqdir yo‘li oxiri “baxayr”emas. Asarning voqealar rivojida bu hol aniq-ravshan talqin etilmasa-da, kitobxon uni qalban his qiladi.

Bu boradagi fikrlarimizni Ulug‘bek Hamdamning “Uzoqdagi Dilnura” hikoyasi[3.] tahlili misolida asoslashga harakat qilamiz. Mazkur asar hikoya janrining obraz yaratish imkoniyatlarini yorib chiqqanligi bilan ahamiyatlidir.

Asarning nomlanishi majoziy: “Uzoqdagi Dilnura – Nur, yorug‘likdan bebahra dil”. Asosiy qahramon Kozimjon hayotida yorug‘lik bordek, biroq bu yorug‘lik quyosh yoki olov taftidek issiq, yoqimli, yaratuvchan emas. U tun yulduzlari singari jilvagar, biroq sovuq.

O‘n sahifalik hikoya qahramonning ikki kunlik hayoti asosiga qurilgan. Amakisining vafoti va dafn marosimi voqeligi uzvida Kozimjonning ruhiy-ma’naviy olami, turmush tarzi, kechmishi yoritiladi. Asarda dramatik asarga xos dialogik nutq turlaridan keng foydalanilgan. Xatto asar dialog bilan boshlanadi. Asarning tuguni ham aka-ukaning dialogida aks etgan. Qisqa dialoglarda Kozim–Nozim, Kozim– Sanam, Kozim– Mahzuna, Kozim– yordamchi, Kozim– Yunus amaki va boshqa munosabatlar yoritiladi.

Kozimni murakkab obraz deyish mumkin. Uning ko‘p sifatlari bugungi kun odamlari orasida uchrashi mumkin bo‘lgan tanish holat. Biroq uning tasviridagi o‘zgachalik – uning ojizligida. Jamiyatdagi mavqei, lavozimiga qarshi o‘laroq ojizligida. G‘alati paradoks. Ojiz, ammo jamiyatdagilar nazarida “kuchli shaxs”dek. Undagi bu ojizlik ildizlari nimada?

Biologiyada parazitlarga “o‘zga organizm hisobiga yashovchi mavjudot”, deb ta’rif beriladi. Kozimjon tabiatida ham ana shu o‘zgalari hisobiga yashash, loqaydlik, o‘z rohatini o‘ylash bolalikedanoq bor edi. Bolagigida... (“u paytda kolxozning bir qarich yeriga ham paxta ekilardi”) Yunus tog‘a bilan o‘t terishga chiqardi. Bu jarayonda Kozimjonning vazifasi – ora-sira tog‘asiga “suv uzatib turish”. Buning evaziga bir kunlik yig‘ilmaning teng yarmi unga taqsimlanar edi.

Bu bilan “Kozimjon uydagi kunlik vazifasining eng muhimini bajargan chiqardi”. Har kuni takrorlanuvchi bu yumush Kozimjon uchun tabiiy holga aylangandi. Balki bola bo‘lgani uchun, deya uni oqlash mumkindir. Biroq 10-12 yoshdagi bolakayda ham o‘ziga yarasha g‘ayrat, or bo‘ladi. Yozuvchi buni yo‘l-yo‘lakay bayon vositasida qistirib o‘tadi.

Yunusning umriga soya solgan o‘sha mudhish kunda ham Kozimjon o‘z amakisini Dadaxon raisdan yetarli darajaga ogohlantirishga kuch va jur‘at topa bilmadi. Rais ularni jazolab, o‘tlarni yig‘ib ketgandan keyin esa amakisining jarohatini ko‘rib ham, “balki yana o‘rarmiz?”- deya murojaat qiladi. Vaholanki, amakisi ko‘p qon yo‘qotib, hushdan ketar darajada edi. Kozimjon jiyan bo‘lib, o‘sha paytda ham qondoshining dardini his qilmadi. Uning uchun kunlik o‘z vazifasining bajarilishi muhim edi xolos. Muallif ana shunday chizgilar asosida Kozim xarakteriga xos sifatning shakllanish ildizini yoritadi.

Kozimjon katta davralarda, odamlar orasida, biroq yolg‘iz odam. U na otasi bilan, na birgina ukasi Nozimjon bilan yaqin. Ular o‘rtasidagi qisqa dialoglar faqat axborot almashinishga asoslangan. Biroq shu qisqa dialoglar ayni paytda katta go‘yaviy-badiiy kuchga ega. Unga ota- bola, aka-uka o‘rtasidagi sovuq bir dard singdirilgan. “Yakkayu yagona inisidan ayrilib, o‘zini oldirib, xiyol dovdirab yurgan” otaning aytgan ikki jumlasini (Yaxshi. Yur. “Kennoyingga uchrab qo‘y”) begonaga aytilgan murojaatdek yangraydi. Kozim bola bo‘lib na otasiga, na kennoyisiga tuzukroq tasalli bera oladi. Vaholanki, katta davralarda ko‘plarning ko‘nglini olgan inson edi u.

Kozimjonning yaqin kishisi yo‘q. Sanamga umrining bir qismi bo‘lmish vaqtini, davlatini hadya qiladi. Biroq og‘ir kunda amakisining o‘tganini aytib, dil yorishdan tiyiladi. Balki undan hayiqadi. Xafa bo‘lib qoldi, deb yo‘ldan qaytib kelib, tilla taqinchoq olish istagini muhayyo qiladi. Shu sabab janozaga aynan yarim soat kech qoladi. Kechikkandagi ruhiyati sabab hayolan uni haqoratlashida Kozim– Sanam munosabatiga xos ayrim jihatlar oydinlashadi.

Kozim xotini bilan ham ochilib-yozilib muomala qilmaydi. Balki Mahzuna ham o‘ylab-o‘ylamay gapirar. O‘rtadagi dialog shuni ko‘rsatadiki, Mahzuna

erining Yunus amakini o'limida bir oz bo'lsa-da, o'zini aybdor his qilayotganini anglamaydi yoki anglagan holda ehtiyotsizlik qiladi. Kozim ham "Kecha va kunduz" romanidagi Razzoq so'fi singari ayoli oldida "bo'lar bo'lmasga til qaltiratishni istamaydi".

Odatda aka-uka, jigarbandlar bir-birinikida qolsa, bir xonada dam oladi. Begona mehmonga ham milliy taomilga ko'ra xonadonda eng yaxshi sharoit yaratiladi. Biroq Kozimjon uchun yaratilgan sharoit unday emas. Nozimjon akasi bilan o'zini bemalol his etar darajada yaqin emas. O'zining yashash sharotidan iymnadi. Kozimjonga alohida joy hozirlangan. Uka alohida xonada bo'lsa-da, e'tibori akasida. Kozimjon zaruriyat sabab tashqariga chiqqanida ham unga hamrohlik qiladi. Biroq o'rtadagi sovuqlik xona va xonadan-da sovuq kecha tasviri bilan beriladi: "Xona sovuq, zax va g'ip qorong'i edi. To'shak va bolishdan ham rutubat isi kelardi. Yotgan joyida uzanib sviterini topdi-yu, shosha-pisha kiyib oldi. Lekin bir pas o'tib yana sovuqotdi".

Bu tasvir Kozimjonning portretini yana bir chizgi bilan to'ldiradi. O'zgalarga ikki ming dollarlik taqinchoqlar olib beradigan "hotamtoy" o'z jigarbandi uyida biroz bo'lsa-da, qulaylik yaratishga ham yaramagan. Xonadonning eng ma'qul sharoiti shu bo'lsa, butun boshli oila, keksa ota, ukaning bolalari qanday tarzda yashamoqda... Amakisi o'z dardini ming istihola bilan ma'lum qilgan epizodda ham uning hol so'rash o'rniga gapni qisqa qilishi, boz ustiga va'da qilingan pulni jo'natishni unutishi ham tubanlikning bir belgisidir. Axir amaki unga yaqin va katta mehr bergan inson ediku.

Kozim- va'daboz. Ammo ularning ijrosini osongina unutadi. Amakiga, kennoyiga, yo'lda xayolan marhum amakisiga, xatto janozaga "boraman" deb Nozimjonga berilgan va'dalar ijrosi osongina havoga uchib ketdi. Vaholanki, a'zador holda biznes sherigi Abdurasulga va'dalashgan tushlik qoldirilmadi. To'ydek tashkillangan tushlikda bo'kib ichib, itdek maishat qildi.

Nazarimizda yozuvchining Kozim haqidagi xulosasi hali asosiy voqealar boshlanmasdanoq, Sanamning nutqi orqali beriladi: "Erkak zoti qop-qop va'da



berarkanu bajarishga kelganda...” Demak, Kozimjonning va’da berib bajarmasligi favqulodda holat emas. Bu bir necha marotaba takrorlangan.

Asar davomida Kozimjonning miyasida bombadek portlagan bir misra uning eng to’kis ta’rifidir: “Somon parchasidek oqib boraman”. Kozimjon hayot atalmish ulkan bir ummonda bir xasdek edi. Buni o’zi ham anglab borardi. Biroq bu holatni o’zgartirgani o’zida kuch, iroda topa bilmadi, aniqrog’i o’zi xohlamadi.

Kozimjon – tabiatan mujmal shaxs. Asarning boshida janozaga aytilganda “hm, xo’p”, deya chaynaladi; ko’z yoshi, iztirobi, hissiyotlarini ham o’z yaqinlaridan yashiradi; tog’asini ogohlantirmoqchi bo’lib, “jur’atsizgina saslanadi”; xorij safarini qoldirishga ham “mujmallanadi”. Bu kabi tasvirlar Kozimjonning qiyofasini yanada tiniqlashtiradi.

Kozimjon adabiyotshunos M.Sheralievanning “Iztirobsiz odam obrazi” maqolasida tahlilga tortilgan Samad obrazi kabi iztirobsiz odam emas. Xudbinlik, “o’z qilmishi uchun ma’naviy mas’uliyat, javobgarlik his qilmaslik”, o’zidan ko’ra “o’zgalarni ayblab qo’ya qolish”lik, “odamlar orasidagi ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga amal qilish burchini o’z zimmasidan soqit qilish”[4.178-184] kabi sifatlar Samad kabi iztirobsiz odamning hayot pozitsiyasini belgilasa, mazmun-mohiyatan yaqindek ko’ringan “ojiz” odam obrazi xos xususiyatlari bilan undan farqlanadi. “Ojiz” odam xudbin, biroq u ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga amal qilish burchini butkul inkor etmaydi. Uning ichida ikkita “men” kurashadi. Bunday ruhiy-hissiy kechinmalar asardagi ichki monologlar orqali teran ifodalangan. Kozimjon vijdon oldidagi so’roqlardan iztirobga tushadi, aybdorlik hissini tuyadi. Biroq bu iztiroblar “issiq tuproqqa bevaqt tushgan qor parchasidek eridi-ketdi”. Bu g’alayonlar Kozimning yuragida insoniylikni, vijdon olovini yoqa olmadi, yoqishga qodir ham emasdi. Chunki bu Kozimning tabiati uchun yot edi, boshqacha aytganda, uning zuvalasida ojizlik sifati ko’proq qorilgan.

Asarda yaratilgan o’ndan ortiq obrazlar u yoki bu darajada Kozimjon obrazini to’laqonli gavdalantirishda o’ziga xos hissa qo’shgan. Bir qator ayollar obrazi – Mahzuna, Sanam, jiyan Dilnura, raqqosa Dilnura, kelinoyi tasvirlari Kozimjon tilidan yangragan “ayol zoti... qanaqa o’zi u?” degan savolning turli

ifodasidir. Ayol kennoyidek hokisor, Mahzunadek sadoqatli, hazin taqdirli, jiyan Dilnuradek uncha-muncha erkaklardan-da shijoatli, shartaki, isyonkor. Biroq afsuski, Sanamdek o'zgalarni baxtsiz qilib davron suradigan tantiq sanamlar, o'z or-nomusi, tanasini sotib yashashdan jirkanmaydigan raqqosa dilnuralar kabi shaytonning ustozlari ham ayol zotidan. Ayol obrazining turfa talqinlarida yozuvchining olamni, insonni anglash yo'lidan boruvchi obraz yaratish uslubiga xos jihatlar namoyon bo'ladi. Muallif kitobxon bilan birga ayol olamini bor sinoati bilan anglashga intiladi.

Hikoyadagi raqqosa Dilnura va jiyan Dilnura ramziylik kasb etadi. Raqqosa Dilnura – nozu ishva, jilvagarlik bilan insonni tuzog'iga tushiruvchi Nafsnings timsoli. Uzoqdagi Dilnura Vijdon timsoli bo'lib, uning xarakterida ham vijdonga xos sifatlar mujassam: isyonkor, qaysar. Kozimjon manzilga yaqindagi Dilnura – nafs bilan yo'lga tushdi. Undan shundog'am uzoqda bo'lgan vijdon yana-da olislab ketdi.

Asarning badiiy-konseptual funksiyasi alohida ahamiyatga molik. Hikoyada yozuvchining hayot falsafasi aks etadi: "Birining ortidan kelib turgan nigohlar oldiniga unga olam-olam mazmun bo'lib tuyulgan bo'lsa, borgan sari ular o'sha ma'ndan mahrum bo'la boshladi: Ko'zlar... ko'zlar bu o'tkinchi dunyoga tashrif buyurib, yana adam sahosiga abadiy ravona bo'layotgan yo'lovchilarga aylandiqoldi. Shunda u... Kozimjon dunyo, umr, hayot deganlarining asl holini- ibtido va intihosini qalb ko'zi bilan ko'rgandek his qildi o'zini. His qildi-yu ajab hollarga tushdi: o'zining ham o'sha son-sanoqsiz odamlardan- yo'lovchilardan zarracha farqi yo'qligini angladi". Insoniyat hayotining bir lavhasi tasvirlangan hikoyada tomchida quyoshdek hayotning asl mohiyati, tiriklikning – kelish-ketishning hikmati aks etadi. Kozimjon – "bu jahon ayvonida" kelib-ketuvchi sanoqsiz yo'lovchilarning biri. U – yelkasida foniy dunyo tashvishi bilan o'zidan-da ortmay o'tib borayotgan, ezgulik sari qadam tashlashga jur'atsiz, ojiz bir yo'lovchi timsoli.

Obrazlar galareyasida "ojiz" odamni ijodkor obrazi bilan kontrast qo'yib o'rganish mumkin. Badiiy asarlarda talqin etilgan ko'pgina ijodkor obrazlari

adabiy makonda, hayotida ilojisiz, ojizdek koʻrinsa-da, uning zaminida metin iroda, ulugʻvorlik va maʼnaviy yuksaklik namoyon boʻladi. Buni “Martin Iden” romanidagi Martin, “Ruhlar isyoni” dostonidagi Nazrul Islom, “Askanio” romanidagi Askanio, “Navoiy va rassom Abulxayr asarlaridagi Navoiy va Abulxayr kabi qator obrazlar misolida ham koʻrish mumkin. Ijodkor Martindek oʻz jamiyatiga sigʻmagan, Nazrul Islomdek isyonkor, qullikka bosh egmagan, Navoiydek “jismi zanjirband sher” boʻlsa-da, “ruhi – qaqnus”dek mangulikka dahldor”. U ziddiyatlar silsilasida ichki bir qudrat bilan olamni anglash yoʻlida hayotini yashab, fido boʻladi.

Ojiz odamlar esa aksincha, zohiran kuchli shaxsdek aslida nafsiga va koʻrinmas kuchlarga qul irodasiz insonlardir. Badiiy adabiyotdagi bu kabi turfa xarakterlar talqini insonni sirli hilqat, tunganmas kashfiyotlar manbai ekanligini taʼkidlaydi. Asl mohiyatan insonshunoslik boʻlgan adabiyot shu jihati bilan ham qizgʻin tadqiqotlar maydonidir.

**TECTJAP**

<b>Test topshirig'i</b>	<b>To'g'ri javoblar</b>	<b>Muqobil javob</b>	<b>Muqobil javob</b>	<b>Muqobil javob</b>
Badiiy tahlil qachon tugal hisoblanadi?	*Badiiy tahlil to'la bo'la olmaydi	Asar tabiati aniqlangach	Badiiy xulosa aniqlangach	Asar xotimasi aniqlangach
Falsafiy tahlilning asosiy omili sanalgan fan...	*falsafa	tarix	estetika	Genetika
Asar badiiy tahlilida muallif shaxsi ahamiyatlimi?	*Asar muallifining ijodiy mahsuli sifatida ahamiyatli	Badiiy voqealikka muallif dahilsiz	Muallif shunchaki real voqeylik kotibi	Badiiy asar hususiyatiga bog'liq
Badiiy asar bevosita ijtimoiy ong maxsulimi?	*Badiiy asar yozuvchi vositaligidagi ijtimoiy ong maxsuli	Badiiy asar erkin yondashuv mahsuli	Bu jarayonni janr xusiyati belgilaydi	Faqat tarixiy asarlarga xos
A.Oripovning "Sohibqiron" she'riy dramasiida yetakchi prinsip...	*Tarixiylik	tizimlilik	Janrning badiiy prinsipi	Yaxlit prinsip ko'rinmaydi
N.Eshonqulning "Maymun yetaklagan odam" asaridagi yetakchi tahlil yo'nalishi...	* Falsafiy tahlil	Genetik tahlil	Tipologik tahlil	Psixologik tahlil
Falsafiy tahlil yo'nalishini ustuvor bo'ladigan asarlarni belgilang.	*"Jajman", "Maymun yetaklagan odam"	"O'tgan kunlar", "Kecha va kunduz"	"Lolazor", "Muvozanat"	"Navoiy", "Ulug' saltanat"
Tarixiylik asosida tahlil qilinadiganlar qatori	*"Navoiy", "Ulug' saltanat"	"Lolazor", "Muvozanat"	"Jajman", "Maymun yetaklagan odam"	"O'tgan kunlar", "Kecha va kunduz"
Badiiy tahlilning so'ngi bosqichini belgilang?	*Badiiy xulosa	Muallif shaxsi	Tarixiylik	falsafiylik
Falsafiy tahlilning muhim unsure..	*Ramziylik	tarixiylik	Tipiklik	Psixologik
Asarning bevosita tuyg'uga ta'sirini belgilovchi tahlil yo'nalishi	*Psixologik tahlil	Falsafiy tahlil	Tipologik tahlil	Genetik tahlil
Badiiy tahlilning birlamchi yo'nalishi?	*Filologik	falsafiy	Psixologik	Tipologik
Badiiy asardagi ramziylik masalasi qaysi yo'nalishda o'rganiladi?	*falsafiy	Filologik	Psixologik	Tipologik
Ikki asar xususiyatlari bo'yicha tahlil yo'nalishi.	*Tipologik	Filologik	Psixologik	falsafiy
Filologik tahlil bu...?	*Asarning	Asar falsafiy	Asar	Asarning

	janr xususiyatinni bo'yicha tahlil	xusisiyatining tahlili	ruhiyatining tahlili	siyosiy tahlili
Roman janrida qahramon obrazini tahlil etuvchi yo'nalishi qaysi?	*Psixologik	Tipologik	genetik	filologik
Tipologik tahlilning ahamiyati?	*Ikki asarning o'xshash jihatlari orqali tahlil qiladi	Asarlarning falsafiy jihatlari belgilaydi	Asarning genetik asosini belgilaydi	Qahramon ruhiyatini belgilaydi.
Evronik hodisa qaysi tahlil yo'nalishida o'rganiladi?	* Filologik	Tipologik	Psihologik	genetik
Qofiyani qaysi tahlil yo'nalishida o'rganiladi?	*Filologik	genetik	Psihologik	Tipologik
Genetik tahlil bu...?	*Asar obraz va syujetini g kelib chiqishi manbalari bo'yicha tahlili	Asarning falsafiy asoslari tahlili	Obrazlarning tarixiyliigi tahlili	Qahramonlar ruhiyati tahlili
Obrazlarning tarixiyliigini tahlili qiluvchi yo'nalish..?	*Genetik	Psihologik	Filologik	Tipologik
Tipologik yo'nalishdagi tahlil vazifasi?	*Asarlarning shakliy xususiyatlari bo'yicha tahlili qiladi	Falsafiy ramzlari bo'yicha tahlili	Kelib chiqishi bo'yicha syujetning tahlili	Ruhiy holatni tahlil qiladi
Nazar Yaxshiboyev ("Lolazor") obrazini yaqqol yorituvchi tahlil yo'nalishi?	*Psixologik	Filologik	Tipologik	Tipologik
"Sayyor syujet" lar qaysi tahlil yo'nalishda muhim obyekt?	*Genetik tahlil	Psixologik tahlil	Falsafiy tahlil	Filologik tahlil
Lirik asarda yetakchi omil.	*Ruhiyat	falsafa	An'ana	tarixiylik
Badiiy asar genetik tahlili qaysi fanga asoslanadi?	*Tarixga	Biologiya	Estetika	Ta'sviriy san'at
Psixologik tahlil ustuvor bo'ladigan asarni belgilang?	*"Ko'hna dunyo"(O.Yo qubov)	"Tushda kechgan umrlar"(O',Hoshimov)	"Navoiy"(Oyb ek)	"Lolazor" (M.M.Do'st)
Syujet, fabula, obraz qaysi tahlil obyekt?	*Filologik	Falsafiy	Tipologik	Genetik
Badiiy tahlil asoslari fanining obyekt...	*Badiiy asar	Obraz	Yozuvchi biografiyasi	Kompozitsiya elementlari
Badiiy tahlil qaysi fanning asosini belgilaydi?	*Adabiy tanqid	Adabiyot nazaryasi	Folklorshunoslik	Matnshunoslik
Genetik tahlilning asosiy	*Tarix	Biologiya	Astronomiya	Adabiyot

fani.				
Badiiy tahlil asosini belgilovchi vositalar...	*Adabiy tanqid, adaiy nazariya	Falsafiy tarif	Etika psixologiya	Estetika, san'atshunoslik
Badiiy tahlilning asosiy jihati	*Tanqidiy yondashuv	Bir yoqlamalik	Psixologik yondashuv	Filologik tamoyillarga asoslangani
Badiiy tahlil turlarini belgilang.	*Ilmiy va o'quv	Og'zaki va yozma	Funksional va Tipologik	Tarixiylik va tizimlilik
Badiiy tahlil shaklini belgilang.	*Og'zaki va yozma	Funksional va Tipologik	Tarixiylik va tizimlilik	Ilmiy va o'quv
Badiiy tahlildagi muhim nizomlaridan biri...	*Milliy mansublilik	Ijodiy mansublilik	Til mansubliliigi	Toifaviy mansublilik
Milliy mansublilik badiiy asarni...	*Asarning ijtimoiy-ma'naviy xos xususiyatini belgilaydi.	Badiiy tahlilda Milliy mansublilik bo'lmaydi	Tarixiylikni belgilaydi	Muallif dunyoqarashini belgilaydi
Ilmiy tahlil turi asosan qanday shaklda bo'ladi?	*Yozma	Og'zaki	Tizimlilik	Prinsipialik
Badiiy tahlilning og'zaki shakli asosan...?	O'quv turida	Ilmiy turida	She'r tahlilida	Tizimlilik
U.Hamdamning „Uzoqdagi Dinnura“ hikoyasidagi qaysi tahlil turi yetakchilik qiladi?	*Psixologik	falsafiy	tipologik	genetik

## Glossariy

<b>Adabiy tur</b>	adabiy asarlarning nutqiy tashkillanishi, tasvir predmeti, obyekt va subyekt munosabati kabi jihatlari bilan umumiylik kasb etuvchi yirik guruhi. Badiiy asarlar an'anaviy ravishda uch katta guruhga: epik, lirik, dramatik turlarga ajratib kelinadi.
<b>Avtointerpretatsiya</b>	(yun. autos–o'zim, lot. lotincha interpretation “talqin qilish”, “tushuntirish”) – muallifning o'quvchiga o'z asarini tushuntirishi, unga o'zi nazarda tutgan ma'noni anglatishga harakat. U turli shakllarda( so'zboshi, sarlavha, epigraf, satr osti izohlari v.b.) amalga oshishi mumkin.
<b>Badiiy asar tahliliga yondashuvlar</b>	tarixiy-tipologik, tarixiy-madaniy, qiyosiy-tarixiy, funktsional, sotsiologik, formal, struktural, biografik, psixologik, psixoanalitik va b.
<b>Badiiy obraz</b>	adabiyot va san'atning fikrlash shakli, olam va odamni badiiy idrok etish vositasi, badiiyatning umumiy kategoriyasi.
<b>Badiiy psixologizm</b>	badiiy asarda inson obrazini yaratishning muhim vositalaridan biri; personaj ruhiyatining ochib berilishi, xatti-harakatlari va gap-so'zlarining psixologik jihatdan asoslanishi, shu maqsadga xizmat qiluvchi usul va vositalarning jami.
<b>Badiiy tahlil</b>	(ar. tekshirish, hal qilish)- adabiy asarning mazmun-mohiyatini idror etish, uning yahlit estetik hodisa sifatidagi mavjudligini turli aspektlarda o'rganib, o'ziga xosligini ochib berish va qimmatini belgilashga qaratilgan hissiy-intellektual faoliyat.
<b>Badiiylik moduslar</b>	-badiiylik ko'rinishlari; badiiylik qonuniyatlari (badiiy butunlik, shartlilik, o'quvchiga yo'naltirilganlik, originallik, universallik ) ning namoyon bo'lish usullari.
<b>Epistolyar adabiyot</b>	(yun.epistole– maktub, noma) – bировga maktub shaklida yozilgan adabiy yoki publitsistik asar.
<b>Esse</b>	(fr. essai– tajriba sinab ko'rish) – muallifning u yoki bu masala bo'yicha shaxsiy mulohazalari bayon qiluvchi nasriy asar. Essening kompozitsion qurilishiga ham, tematik tomoniga ham cheklovlar qo'yilgan emas.
<b>Germenevtika</b>	(yunoncha. «sharhlayman», “tushuntiraman”, “talqin qilaman”) – tushunish nazariyasi, matnni talqin qilish tamoyillari haqidagi ta'limot. Murakkab va chalkash ma'noli matnlarni tushunish san'ati hamda uni ilmiy talqin qilish tamoyillari haqidagi nazariy fan.
<b>Ichki nutq</b>	personajning moddiylashmagan, o'ziga qaratilgan va ichidagina kechuvchi nutqi, badiiy psixologizmning

	bevosita shakli.
<b>Ideal, estetik ideal</b>	(yun. idea so`zidan fr. ideal – tasavvur, tushucha) estetika, jumladan, adabiyotshunoslikning muhim ilmiy kategoriyalaridan biri, go`zallik, estetik mukammallikning yuksak darajasi haqidagi his etiladigan konkret-timsoliy shaklda aks etuvchi tasavvurlar jami.
<b>Interpratatsiya</b>	(lotincha interpretation “talqin qilish”, “tushuntirish”) – ma`nolarini anglatadi. 1. Biror narsani talqin qilish, tushuntirish. 2. Biror asar yoki san`atkorni ijodiy jihatdan izohlash. Badiiy asar mohiyatini turli yo`sinda talqin qilish, izohlash usuli, asarning badiiy kontseptsiyasini anglash, tushunish.
<b>Mavzu</b>	(ar. qo`yilgan, tartibga solingan) badiiy mazmun komponenti, asarga qo`yilgan ijtimoiy, falsafiy, ma`naviy-axloqiy va h. muammolarni badiiy idrok etish uchun tanlab olingan va tasvirlangan hayot materiali.
<b>Nutqiy xarakteristika</b>	-inson obrazini yaratishning muhim vositalaridan biri, epik va dramatik asarlarda personaj xarakteriga xos xususiyatlarni uning nutqini individuallashtirish orqali berish. Personaj nutqini individuallashtirish to`laqonli badiiy xarakter yaratishning muhim sharti sanaladi.
<b>Pafos</b>	(yun. pathos- his, ehtiros) – ijodkorning o`zi tasvirlayotgan voqelikka g`oyaviy-hissiy munosabati, avtor emotsionalligi.
<b>Refren</b>	qaytariqning she`riy asarlardagi ko`rinishi.
<b>Sujet</b>	(fr. sujet – predmet, asosga qo`yilgan narsa) – badiiy shaklning eng muhim elementlaridan biri, asardagi bir-biriga uzviy bog`liq holda kechadigan, qahramonlarning xatti-harakatlaridan tarkib topuvchi voqelar tizimi.



## MUNDARIJA

Kirish.....	3
Yaproqdagi hayot talqini.....	4
Matonatning ming bir sinovi.....	8
Ijodkor qismati, iste`dod dardi.....	13
So`zdan yaralgan tasvirlar.....	28
Daftar hoshiyasidagi oila bitiklari.....	31
Kavsar ifor kitob.....	33
Omon Muxtor romanlarida Navoiy timsoli.....	48
Ulug`bek Hamdamning “Uzoqdagi Dilnura” hikoyasida “ojiz odam” obrazi....	53
Testlar.....	60
Glossariy.....	63